

ARES

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

2026/01

VOLUME 7

ISSUE 1



We increase scientific potential together!

ARES.UZ

Exact Sciences
Natural Sciences
Technical Sciences
Pedagogical Sciences
Medical Sciences
Social and Humanitarian Sciences





ISSN 2181-1385

VOLUME 7, ISSUE 1

JANUARY, 2026

www.ares.uz

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 7, ISSUE 1, JANUARY, 2026

EDITOR-IN-CHIEF

G. Mukhamedov
Professor, Doctor of Chemical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

EDITORIAL BOARD

B. Eshchanov
Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
U. Khodjamkulov
Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
S. Koraev
Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
O. Ortikov
Acting Professor, Doctor of Economical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
D. Akhmadjanov
Acting Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
G. Nurshiyeva
Professor, Doctor of Philosophical Sciences, National University of Kazakhstan
Y. Safronova
Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia
B. Khusanov
Professor, Doctor of Philosophical Sciences, Namangan State Pedagogical Institute
K. Tulantayeva
Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, National University of Kazakhstan
O. Naumenko
Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, National University of Science and Technology MISIS
M. Rakhimshikova
Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University
M. Gulyamova
Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Uzbekistan State World Languages University
N. Makhmudova
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University
K. Makhmudov
Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
S. Atkamova
Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State World Languages University
N. Zolotyx
Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia
T. Shevchenko
Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Volgograd State Agricultural University, Russia
F. Rajabov
Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
M. Djumabekov
Associate Professor, Candidate of Philosophical Sciences, South Kazakhstan State University
K. Toshov
Senior Lecturer, PhD, National University of Uzbekistan
A. Shofkorov
Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Uzbekistan State University of World Languages University
S. Toshtemirova
Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
D. Otajonova
Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
Z. Sanakulov
Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
S. Gayupova
Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
Sh. Kurbanov
Associate Professor, PhD in Technical Sciences, Karshi State Technical University
D. Abduramanova
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
L. Akhatov
Acting Associate Professor, PhD in Philosophical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
O. Dulanboeva
PhD in Sociological Sciences, National University of Uzbekistan
N. Kholikova
Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
D. Tajibaeva
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Namangan State University
E. Khalikova
Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
B. Mardonov
PhD in Political Sciences, Customs Institute under the Customs Committee of the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan
Sh. Botirova
Professor, Doctor of Philological Sciences, Al-Fraganus University
M. Fayzullaeva
Senior Teacher, PhD in Philological Sciences, Uzbekistan State University of World Languages University
A. Ikramov
Senior Lecturer, PhD in Juridical Sciences, University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan
D. Ruzmetova
Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
K. Abdullaev
Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Namangan State University
N. Kenjaeva
Associate Professor, PhD in Historical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
F. Yusupova
Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
B. Kuyliev
Senior Teacher, PhD in Philosophical Sciences, Tashkent State Medical University
F. Murodova
Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
D. Khudoyberdieva
Acting Associate Professor, PhD in Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University
A. Baisov
Acting Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
Sh. Israilova
Lecturer, PhD in Philosophical Sciences, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan
D. Abdullaeva
Senior Lecturer, PhD in Philosophical Sciences, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan
U. Saidov
Associate Professor, PhD in Philological Sciences, Chirchik State Pedagogical University
Kh. Ochilova
Acting Associate Professor, PhD in Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

Editorial Secretary, Ph.D.: T. Madalimov

PROFESSIONAL TA’LIMNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI

Elboyev Bakr Otamurodovich
Mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar haqida ayniqsa professional ta’lim muassasalarida ta’lim mazmuni, soni va sifati, ta’lim dasturlari, texnologiyalarning isloh qilinishi oqibatida bir qancha o’zgarishlar amalga oshirilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, huquqiy savodxonlik, keng ko’lamli islohotlar, xalqaro hamkorlik, jamiyat, konsepsiya, zo’ravonlik, intellektual taraqqiyot, kadrlar tayyorlash.

ANNOTATION:

This article provides information about the large-scale reforms being carried out in the education sector today, especially regarding the implementation of a number of changes in the content, quantity and quality of education in vocational educational institutions, educational programs, and technologies as a result of the reform..

Keywords: education, legal literacy, large-scale reforms, international cooperation, society, concept, violence, intellectual development, personnel training

АННОТАЦИЯ:

В статье представлена информация о масштабных реформах, проводимых сегодня в сфере образования, в частности, о внедрении в результате реформы ряда изменений в содержание, объем и качество образования в профессиональных учебных заведениях, образовательных программах и технологиях..

Ключевые слова: образование, правовая грамотность, масштабные реформы, международное сотрудничество, общество, концепция, насилие, интеллектуальное развитие, подготовка кадров

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar barcha ta’lim muassasalarining yangicha zamonaviy qiyofasini ko’zlamoqda desak mubolag’a bo’lmaydi. Mamlakatimizda 2019 yilning oktabrida O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini

2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga muvofiq, intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatdosh kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatnisamarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

NATIJALAR

Bundan tashqari, 2030 yilgacha mo‘ljallangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti “Barqaror Taraqqiyot Dasturi”ning inklyuziv, adolatli va sifatli ta’limni ta’minlash va hayot davomida ta’lim olishni rag‘batlantirishga qaratilgan maqsadlari – jahon tajribasini o‘rganish asosida ta’lim tizimini rivojlantirish hamda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda bugungi kunda, professional ta’lim muassasalarida ta’lim mazmuni, soni va sifati, ta’lim dasturlari, texnologiyalarning isloh qilinishi oqibatida bir qancha o’zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi esa iqtisodiyotni taraqqiy ettirish, kambag’allikni qisqartirish yoshlar va xotin qizlarning hayotda munosib o’rin topishi, natijada xalqimiz turmush faravonligini oshirish masalalarining ijobiy hal etishini ta’minlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 6 sentyabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Mazkur Farmon O‘zbekiston tarixida yangi professional ta’lim tizimini tashkil etishga asos bo‘ladi. Ushbu farmon yuzasidan 2020 yil 24 yanvarda davlatimiz rahbari o‘z Murojaatnomasida “Joriy o‘quv yilidan boshlab, mutlaqo yangi professional ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilib, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar tashkil etiladi” deb mazkur tizimning ahamiyatini yana bir bor alohida ta’kidlaganlari barcha kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarning yangi zamonaviy qiyofada faoliyat yuritishlariga turtki bo’ldi.

Bunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barobarida tadbirkorlik, kichik biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko’rsatish, chorvachilik, parrandachilik kabi tez sur’atlarda ravnaq topayotgan sohalar uchun ishchi kasblar bo’yicha malakali kadrlar tayyorlashi ko’zda tutildi. O’z navbatida, yangi tizimning barcha huquqiy - me’yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, yaqinda “O’zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang’ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ – huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi hukumat qarori e’lon qilindi. Qaror bilan uzluksiz boshlang’ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’lim to’g’risidagi nizom, boshlang’ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar

maktablarining namunaviy ustavi, O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi hamda O'rta- maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlidigan texnikumlarning namunaviy ustavi tasdiqlandi.

Professional ta'lim tizimining maqsadi va talabi - professional ta'lim muassasalarida o'qigan yoshlar aniq ish o'rniga, o'z kasbi bo'yicha zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi shartligidadir. Ayni vaqtda ushbu tizim oldida o'quv adabiyotlari, kitob va darsliklar, elektron ta'lim resurslari, innovatsion, raqamlashtirilgan ta'lim texnologiyalarini to'liq yangilash, ochiq elektron resurslar tarmog'iga ulash, o'quv adabiyotlarini xorijiy davlatlardan olib kelish, qayta ishlash, chop etish va tarqatish, kelajak kutubxonalari va auditoriyalarini yaratish muhim vazifa etib belgilangan. Farmonga muvofiq, professional ta'lim muassasalari maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi toifalarga ajratishimiz mumkin:

Birinchi toifa - ta'limning Xalqaro standart tasniflagichining 3-darajasiga mos keluvchi dasturlar asosida 9-sinf bitiruvchilari tarkibidan yoshlarning professional ta'lim olishini ta'minlaydigan 340 ta kasb-hunar maktabi.

Ikkinchi toifa - ta'limning Xalqaro standart tasniflagichining 4-darajasiga mos keluvchi dasturlar asosida iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, strategik muhim ahamiyatga ega loyihalar asosida yaratiladigan yangi ish o'rinlarini malakali mutaxassislar bilan to'ldirishga yo'naltirilgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tizimidagi 147 ta kollej.

Uchinchi toifa - ta'limning Xalqaro standart tasniflagichining 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan, vazirlik, idora, tashkilotlar tizimida faoliyat ko'rsatadigan 143 ta texnikum.

Prezidentimiz tomonidan ushbu sohada tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy professional ta'lim tizimini barpo etishning maqsad va ustuvor vazifalari, bir so'z bilan aytganda, sohaning yangi vazifalar belgilab berildi.

Uning mohiyati yangi sifat va formatda inson resurlarini rivojlantirish, yoshlarda ichki va tashqi mehnat bozori talab qilayotgan amaliy kvalifikatsiyalarni shakllantirish, ularning Vatanga muhabbatini, xalqiga sadoqatini yuksaltirishdan iboratdir. Shu tariqa tizim oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

-hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo'sha oladigan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash;

-yoshlarni malakali mehnat orqali o'z hayot farovonligini ta'minlashga o'rgatish;

-o'z mehnat faoliyatiga innovatsion va kreativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, madaniy, ma'naviy potensialni rivojlantirish kabi kompetensiyalarni shakllantirish metodologiyasini yaratishdan iborat.

Endilikda professional ta’lim tizimining asosiy talabi- ta’limning sifatiga qaratiladi. Buning uchun ta’lim muassasalarida yangi standartlar, yangicha o‘qitish metodologiyasi, yangi darslik va adabiyotlar, pedagoglarning zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalaridan doimiy foydalanishlari va baholash tizimini joriy etishlari rejalashtirilgan. Professional ta’lim tizimi tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlarni tayyorlaydi. Ishchi kasblar bilan o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlash tizimi bir-biridan to‘liq ajratilib, ishchi kasblar alohida o‘quv rejasi va dasturlar asosida 6 oydan 1 yilgacha bo‘lgan muddatda o‘qitiladi. O‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlash uchun zarur muddat kamida 2 yilni tashkil qiladi. O‘quvchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda mazkur maktablarning jozibadorligini oshirish maqsadida 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab, professional ta’lim tizimiga o’tgan barcha ta’lim muassasalarida o‘quvchilariga 3 mahal ovqat, stipendiya beriladi.

Professional ta’lim muassasalaridagi qisqa muddatli kurslarda barcha yoshdagi (katta yoshdagilar ham) talabalar qabul qilinadi va o‘qitiladi. Yoshlar o‘qishga qabul qilingan kundan e’tiboran o‘z shaxsiy biznesini boshlashi va bitirgan paytda barqaror tadbirkorlik faoliyatiga, aniq ish o‘rni va daromadiga ega bo‘lishi asosiy maqsad etib belgilangan. Bundan tashqari talabalarda ta’lim dasturlarida mavjud ish o‘rinlariga mos kasbiy-amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, rus, ingliz tillarini mukammal o‘rgatish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratiladi. Professional ta’lim jarayoniga barcha ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, kichik biznes va tadbirkorlik, axborot kommunikatsion texnologiyalari sohalarida katta tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislar, ish yurituvchilar, injener-texnologlar, agronom va masterlar jalb etiladi.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, professional ta’limning yangi tarmog‘ida faoliyat yuritadigan barcha direktorlar, direktor o‘rinbosarlari, o‘qituvchi pedagoglar, ishlab chiqarish ustalarini saralash, tanlash, tayinlash, qayta tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish, ularning maqomini belgilash va mehnatini rag‘batlantirishning yangi tartiblari ishlab chiqishadi va amaliyotga tadbiq etishadi. Professional ta’lim tizimning asosiy prinsipi esa - avval ish o‘rni aniq bo‘ladi, ish beruvchi o‘zining malaka talablarini, shu kasbning ilmini, o‘qitish texnologiyasini beradi, shundan keyingina mutaxassis tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Ma’rifat gazetasi 18.09.2019y.
2. O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to’grisidagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning 29.04.2019 yildagi PF-5712 son farmoni. www.lex.uz sayti.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmoni.
4. Yusupov X. Tizimli innovatsion yondashuv asosida ta’lim sifatini boshqarishning asosiy yo’nalishlari. – T.: Xalq ta’limi, 2019. – 44- b
5. Rahmonov, Oliy ta’lim tizimi: O’zbekiston qanday marralarni ko’zlamoqda? – T.: Xalq so’zi, 2021. – 2-3 – b.

OLIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Elboyev Bakr Otamurodovich
Mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiytadqiqot faoliyatiga mablag‘larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat muhitini rivojlantirish masalalari xususida mushohada yuritilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuvi va axborotlar oqimi, ta’lim, innovatsion jarayonlar, raqamli texnologiya, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim xizmatlari, diversifikatsiya, menejmenti tizimi, oliy ta’lim muassasasi.

АННОТАЦИЯ.

В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности реформ, реализуемых в системе высшего образования, обеспечения финансовой устойчивости государственных высших учебных заведений, самостоятельного решения вопросов укрепления материально-технической базы, расширения возможностей привлечения средств на научно-исследовательскую деятельность, развития конкурентной среды среди высших учебных заведений. Ключевые слова: глобализация и информационный поток, образование, инновационные процессы, цифровые технологии, педагогические условия, образовательные услуги, диверсификация, система управления, высшее учебное заведение.

ABSTRACT.

This article examines the issues of increasing the effectiveness of reforms being implemented in the higher education system, ensuring the financial stability of state higher education institutions, independently resolving issues of strengthening the material and technical base, expanding the possibility of attracting funds for research activities, and developing a competitive environment between higher education institutions.

Keywords: globalization and information flow, education, innovative processes, digital technology, pedagogical conditions, educational services, diversification, management system, higher education institution.

KIRISH:

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ta'lim sohasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimi jahon ta'lim standartlariga mos ravishda yangilandi. O‘zbekistonning oliy ta'lim tizimi faqat mamlakat ichida emas, balki xalqaro miqyosda ham o‘z o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Bu jarayonda ta'lim dasturlari, o‘quv metodikasi, kadrlar tayyorlash va ilmiy faoliyatning sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Mustaqillikdan keyin oliy ta'lim tizimi, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadigan sohalardan biriga aylangan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, oliy ta'lim tizimi rivojlanishda yangi bosqichga o‘tdi. 1992-yilda qabul qilingan “Oliy ta'lim to‘g‘risida”gi qonun ta'lim tizimini mustahkamlashga, yangi oliy ta'lim muassasalarini yaratishga va ta'lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan muhim hujjat bo‘ldi. Bu qonun asosida ko‘plab oliy ta’lim muassasalari tashkil etildi va ularning ta’lim dasturlari xalqaro standartlarga moslashtirildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun xalqaro tan olgan diplomlarni olish imkoniyati yaratildi. Oliy ta'limning bugungi rivojlanishi dunyo miqyosida katta o‘zgarishlar va yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Hozirgi kunda oliy ta’lim nafaqat bilim berish, balki talabalarni zamonaviy ish bozoriga tayyorlash, ularning innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ilmiy izlanishlarga yo‘naltirishni o‘z ichiga oladi.

NATIJALAR:

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “Ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish, oliy ta’lim muassasalarining innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ularning transformatsiyasini rivojlantirish” vazifalari belgilandi. Bu esa oliy ta’lim muassasalari transformatsiyasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratish va uning tashkiliy-boshqaruv, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqazo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘rsida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot

sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-oktabrdagi 655-son “Oliy ta’lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bularning barchasi ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qildi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida xalqaro standartlar asosida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Asosiy e‟tibor talaba-yoshlarning ta’lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga, davlat byudjetining 3/1 qismi ta’limga yo‘naltirildi. Natijada, o‘tgan 6 yil mobaynida oliy o‘quv yurtlari soni 77 tadan 210 taga yetdi, ularga qabul 3,5 baravarga ortdi. Yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 39 foizga oshirildi. Bu esa, oliy ta’limda ta’lim xizmati sifati va raqobatbardoshligini oshirishga alohida e’tibor qaratish va ta’lim jarayonini xalqaro talablarga moslashtirish, oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Oliy ta’lim muassasalari o‘z vazifalarini bajarish uchun ustuvor yo‘nalishlarni va shunga mos ravishda maqsadli resurslarni aniqlashi kerak. Universitetlar strategiyalarni aniqlay olmasalar, ustuvorliklarni belgilay olmasalar, o‘qitish va tadqiqot maqsadlarini tanlay olmasa va amalga oshira olmasa hamda umuman o‘z tuzilmalari va tashkilotlarini o‘zgaruvchan muhitga moslasha olmasa, samarali va mustahkam bo‘lolmaydi. Shuning uchun ham, XXI asr OTMlari boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni qabul qilishi zarur va korporativ boshqaruv kabi xususiy sektor modellariga amal qilish tez sur’atlarda o‘sib bormoqda. Ushbu tizimga rioya qilgan holda, OTMlar korporativ siyosat va rejalashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda tajribaga ega bolgan va rahbarlik qilish hamda boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan boshqarilishi lozimligini ko‘rsatadi. Mazkur korporativ boshqaruv tuzilmasi oliy ta’lim muassasalarining nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini amalga oshirishi, uzoq muddatli biznes-rejalar tuzishi, o‘z missiyasi va strategik qarashlarini aniqlashi, asosiy faoliyat va samaradorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishi hamda yillik byudjet harajatlarni belgilashi va nazorat qila oladi.

O‘zbekiston Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida 35ta OTMga moliyaviy mustaqillik berildi. Moliyaviy boshqaruvning asosiy maqsadi — oliy ta’lim tizimi uchun zarur bo‘lgan barcha moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, xarajatlar va daromadlarni nazorat qilish, shuningdek,

institutsional barqarorlikni ta’minlashdir. Moliyaviy boshqaruvdagi muhim jarayonlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: budjetlashtirish, daromad manbalari, mahalliy budjetlar, xarajatlarning samarali sarflanishi nazarda tutiladi. Moliyaviy reja va strategik maqsadlar asosida amalga oshiriladigan nazorat va hisobot berish jarayonlari oliy ta’lim muassasasining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, muassasa xodimlariga to‘lanadigan maoshlar, ta’lim jihozlari, o‘quv materiallari, kundalik ovqatlanish va boshqa xizmatlar uchun sarflanadigan xarajatlar moliyaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismidir. Moliyaviy samaradorlik va nazariy nazorat ostidagi mablag‘lar harakati, davlat grantlari va ijtimoiy loyihalardan foydalanish, oliy ta’lim tashkilotlarining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Oliy ta’lim tashkilotlarini boshqarishning moliyaviy jihatlari juda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlaganidek, biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya‟ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Aytish joizki, bugungi kunda olis hududda yashovchi Oliy ta’limga o ‘qishga kirish istagi bo‘lgan yoshlarga Buxoro davlat pedagogika instituti ustozlari tomonidan qo‘shimcha tayyorlov kurslari tashkil etilib, kelgusida OTMda tahsil olishlarida o‘z ko‘maklarini ayamay kelmoqdalar. Oliy ta’limning moliyaviy jihatlarini to‘g‘ri boshqarish, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy talablarga moslashish uchun muhim shartdir.

Moliyaviy barqarorlik va samaradorlik tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, oliy ta’lim tashkilotlarining moliyaviy boshqaruvi - bu ko‘p jihatli jarayon bo‘lib, buning ortidan ta’limning sifatini va samaradorligini ta’minlash uchun aniq strategiya va rejalar zarur. Moliyaviy muddatlar, manbaalar va sarflar muvozanatini tutish va samarali boshqarish - bu oliy ta’limning barqarorligini ta’minlashning asosiy shartlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic research in educational sciences, 2(1), 778-782.

2. Хасанова, Г. К. (2020). Classification of Educational Activities and Assessment Classifications: Improvement of Pedagogical Problems. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(11s), 1958-1961.

3. Хасанова, Г. К. (2019). Педагогические особенности формирования творческой активности учащихся в начальном образовании. Научный журнал, (6 (40)), 86-87.
4. Хасанова, Г. К. (2019). Педагогические особенности формирования творческой активности учащихся в начальном образовании. Научный журнал, (6 (40)), 86-87.
5. Qosimovna, H. G. (2021). The concept of the development of the giftedness of Preschool Children of Creative Self-Realization. Middle European Scientific Bulletin, 10(1).
6. Хасанова, Г. К. (2021). Педагогические основы развития социальной деятельности студентов вузов. Вестник науки и образования, (17-3 (120)), 68-71.

NO‘XAT (CICER ARIENTINUM L.) O‘SIMLIGINING YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI VA XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI

Sardor Zoirjon o‘g‘li Pardaboyev
O‘zRFA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti tayanch doktaranti

Farrux Ilxomovich Matkarimov
O‘zRFA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari falsafa doktori

ANNOTATSIYA

Maqolada no‘xat o‘simligining morfologik tuzilishi, biologiyasi xususiyatlari, agro va biotexnologiyasi, tuproq unumdorligiga ta’siri, kimyoviy tarkibi, oziq-ovqat xavfsizligidagi o‘rni, ovqat ratsionidagi roli, xalq xo‘jaligidagi ahamiyati tahlil qilingan hamda no‘xat o‘simliginning foydali xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: no‘xat, oqsil, tuganak, yetishtirish texnologiyasi, tuproq unumdorligi, oziq-ovqat xavfsizligi

ABSTRACT

The article analyzes the morphological structure, features of biology, agro and biotechnology, impact on soil fertility, chemical composition, role in food security, role in the diet, importance in the national economy and provides information on the beneficial properties of the chickpea plant.

Keywords: chickpea, protein, nodule, cultivation technology, soil fertility, food safety

KIRISH

No‘xat o‘simligi asosan tropik va subtropik mintaqalarda o‘sadigan dukkakli ekinlardan biri hisoblanadi. No‘xat qadimdan, taxminan 4000 yildan beri yetishtirilib kelinmoqda. I.V.Seferova ma’lumotlar ko‘ra, madaniy no‘xatning vatani G‘arbiy Osiyo hisoblanadi [24]. No‘xat moslashuvchan hamda ekologik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekin turi bo‘lib, 55 dan ortiq mamlakatlarda yetishtiriladi. Aholi o‘sishi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda (Hindiston, Pokiston, Efiopiya) no‘xat doni asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri hisoblanadi [21]. Dunyo bo‘yicha no‘xat yetishtiriladigan maydonlarning 90% hududi Osiyo davlatlariga to‘g‘ri keladi [8].

Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda yuqori kaloriyaga ega bo‘lgan, oqsilga boy no‘xat ekini loviya va ko‘k no‘xatdan keyin uchinchi ekin hisoblanadi va jahon bo‘yicha

dukkakli ekinlarning 20 foizini tashkil qiladi. Dukkakli ekinlar shu jumladan no‘xat o‘simligi dehqonchilikda 3 ta asosiy vazifani: o‘simlik oqsili masalasi, don yetishtirishni ko‘paytirish va tuproq unumdorligini oshirishni hal etishga yordam beradi [17].

ADABIYOTLAR TAHLILI

No‘xat o‘simligining ildizi o‘q ildiz hsioblanadi. Ildzining asosiy qismi (70-80%) yerning haydalma qatlamida joylashgan bo‘lib, asosiy ildiz 1-1,5 m chuqurgacha kiradi, yon ildizlar esa 60-80 sm gacha gorizantal tarqaladi. Poyasi to‘g‘ri, sershox, bo‘yi o‘rtacha 25-75 sm va navlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib undan ham uzun bo‘lishi mumkin. Barglari qisqa bandli, toq patsimon bo‘lib, mayda va arra tishchali bo‘ladi. O‘simlikning hamma qismi bezsimon tukchalar bilan qoplangan. Bu bezsimon tukchalar orqali organik kislotalardan oksalat va olma kislotalari ajralib chiqadi [21].

No‘xat o‘simligidagi asosiy poya shoxlanishi va ikkilamchi shoxlanish muhim morfologik belgilardan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishi unda nisbatan ko‘proq dukkak joylashishiga olib keladi [12]. No‘xat o‘simligi dukkaklari 1,5 – 3,5 sm, ovalsimon yoki qavariq shaklda bo‘lib, ichida asosan 1-2 ta, ba’zan 3 tagacha urug‘ bo‘ladi [17].

No‘xat o‘simligi qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lishi bilan boshqa dukkakli ekinlardan ajralib turadi. No‘xat issiqsevar, yorug‘sevar, uzun kun o‘simliklar qatoriga kiradi, biroq dastlabki paytlarda u issiqni kam talab qiladi. Urug‘i 3–4°C issiqda unib chiqa boshlaydi va 8°C da 9 – 10 kunda maysaga aylanadi. No‘xat o‘simligi gullash va hosil tugish davrida issiqni ko‘p talab qiladi. Bu vaqtda o‘simlik normal rivojlanishi uchun harorat kamida 20° C bo‘lishi kerak. No‘xat yirik maysali o‘simlik bo‘lib, uning maysalari -10°C, -11°C gacha sovuqqa, voyaga yetgan o‘simliklari esa -8°C gacha sovuqqa chidaydi. Qish yumshoq kelgan va yog‘ingarchilik normal bo‘lgan yillari kuzgi no‘xat yaxshi qishlaydi va bahorgisiga qaraganda hosildorligi yuqori bo‘ladi. No‘xat boshqa dukkakli ekinlarga qaraganda qurg‘oqchilikka va yuqori haroratga chidamli ekinlardan biri hisoblanadi. Sho‘rlangan, unumdorligi past va qumloq yerlarda kam hosil beradi. O‘sish sharoiti va o‘suv davri nav xususiyatlariga qarab 60-140 kun bo‘lishi mumkin [21].

No‘xat o‘simligining yillik ishlab chiqarilishi butun dunyo bo‘yicha 15,0 million tonnani tashkil qiladi [7]. No‘xat asosan kuzgi muddatda noyabr oyida, bahorgi muddatda esa fevral oyida ekiladi. Tog‘li va va tog‘oldi hududlarda ekish normasi 80-100 kg, tepaliklardagi lalmi yerlarga 60-80 kg miqdorni tashkil qiladi. Urug‘lar 5-6 sm chuqurlikka ekiladi. Yerni shudgorlashdan oldin gektariga 4-5 t go‘ng va 30-45 kg fosforli o‘g‘it bilan aralashtirilgan holda yoki 50-60 kg fosforli o‘g‘it, bahorda

gektariga 30-45 kg azotli o‘g‘it ammiakli selitra holida beriladi [26]. No‘xat o‘simligi navlarining hosildorligini oshirishda yerni 28-30 sm chuqurlikda shudgor qilish, optimal sug‘orish va o‘g‘itlash muhim ahamiyat kasb etadi. No‘xat o‘simligi ozuqa modda va namlik yetishmasligi tufayli hosilini keskin pasaytiradi [14]. No‘xat o‘simligida agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri olib borish don hosilining 22,73% gacha o‘sishini ta’minlaydi [13].

No‘xat o‘simligining o‘sishi va rivojlanishini modellashtirishda harorat va fotoperiodning roli muhim ahamiyat kasb etadi [5]. No‘xat o‘simligi ontogenezida o‘sish va rivojlanishga asosan issiqlik stressi ta’sir qiladi. Odatda, no‘xat yuqori haroratga moslashuvchan o‘simlik hisoblanadi. Biroq, reproduktiv rivojlanish davridagi issiqlik stressi hosilning sezilarli darajada pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun no‘xat yetishtirishda ekish muddatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi [6]. No‘xat o‘simligining don sifati va hosildorligiga ekish muddatlarining ta’siri o‘rganilganda vegetatsiya davrlari, o‘simlikdagi don soni va og‘irligi, biologik hosildorlik, hosil indekslari orasida o‘zaro farqlanish kuzatilgan. Bunda erta va kech ekilgan namunalarda don sifati va hosildorligi sezilarli darajada pasayishi aniqlangan [3].

Tuganakli bakteriyalar va dukkakli o‘simliklar o‘rtasidagi simbioz munosabatlar mavjud. Buning o‘ziga xosligi dukkakli o‘simliklar shu jumladan no‘xatning ildizlari tomonidan bakteriya hujayralarining ildiz yuzasiga yopishishida asosiy rol o‘ynaydigan maxsus oqsillar – lektinlarning ajralib chiqishi bilan bog‘liq. Bu oqsillar ildiz tuklari yuzasidagi makromolekulalar va tuganak bakteriyalarning hujayra membranalari bog‘lovchi vazifasini bajarib, bir uchi ildiz tukchalari yuzasining polisaxaridlari bilan, ikkinchi uchida esa tuganak bakteriyalarning kapsulasidagi polisaxaridlari bilan birikadi [25]. Ushbu holatda bakteriya va o‘simlik o‘rtasidagi simbioz natijasida azotfiksatsiyasi amalga oshadi.

No‘xat yetishtirishda biotexnologik usullardan biri mikrobiologik o‘g‘itlardan foydalanish hisoblanadi. Mikrobiologik o‘g‘itlar tarkibiga qarab o‘simliklardagi fiziologik va biokimyoviy jarayonlarga ijobiy ta’sir qiladi hamda antioksidant tizimning faollashishida, o‘simliklarda tuganaklar soni ortishida, tuproqning biologik holatining yaxshilanishida ishtirok etadi. Mikrobiologik o‘g‘itlar tarkibidagi foydali mikroorganizmlar faoliyati natijasida tuproqdagi organik moddalar parchalanib tuproqdagi gumus miqdorining ortadi [1,2,4,22]. Bu esa o‘z navbatida no‘xat o‘simligida o‘sish va rivojlanishni yaxshilab, don hosilini oshirish imkonini beradi [20]. F.I. Matkarimov va boshqalar tadqiqotlarida mikrobiologik o‘g‘itlar ta’sirida don hosilining oshishi asosan bir o‘simlikdagi don soni va mos ravishda bir o‘simlikdagi umumiy don vazniga bog‘liq ekanligi aniqlangan [16,23]. Bundan tashqari no‘xat nav va namunalarida

don hosildorligining yuqori bo‘lishi genotipga ham bog‘liq. D.Qulmamatova va boshqalar tadqiqotlarida seleksion jarayonlarda hosildor nav va namunalarni tanlashda korrelatsion va regression tahlillar o‘tkazilgan va don hosili yuqori namunalar tanlab olingan [18].

No‘xat o‘simligi doni insonlarning ovqat ratsionida muhim o‘rin tutadi. Uning tarkibida inson salomatligi uchun zarur bo‘lgan oqsil, uglevod, folat, β-karotin, minerallar, vitamin va yog‘ kislotalari mavjud [10,11]. No‘xat mevasi tarkibida odam organizmi uchun yetarli miqdordagi molibden mavjud. Molibden organizmning energetik quvvatini oshiradi. Organizmda molibden yetarli miqdorda bo‘lmasligi, surunkali charchoq va depressiyaning rivojlanishiga sabab bo‘ladi [21]. Ovqat ratsionida muntazam no‘xatning bo‘lishi qandli diabet, gipertoniya, semirish va hatto saraton kasalliklarini yengillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi [15]. No‘xat doni tarkibidagi kaliy, magniy va folatlar qon bosimini pasaytiradi, qondagi xolestrin miqdorini normallashtirib, yurak yurak-qon tomir sistemasi faoliyatini yaxshilaydi. No‘xat organizmda uglevod almashinuviga ijobiy ta’sir qilgani uchun qandli diabet kelib chiqishini oldini oladi. Bundan tashqari ichaklar holatini yaxshilab hazm qilish jarayonini yengillashtiradi [9,19].

XULOSA

No‘xat o‘simligi almashlab ekishda, tuproq holatini yaxshilashda, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda, aholini oqsilga bo‘lgan talabini qondirishda hamda inson salomatligini yaxshilashda muhim strategik ekin hisoblanadi. Shuning uchun no‘xatning ekin maydonlarini kengaytirish, ekish texnologiyasi takomillashtirish hamda iste’molini ko‘paytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Abdela A.A., Barka G.D., Degefu T. Co-inoculation effect of *Mesorhizobium ciceri* and *Pseudomonas fluorescens* on physiological and biochemical responses of Kabuli chickpea (*Cicer arietinum* L.) during drought stress //Plant Physiology Reports, 2020. № 25. – P. 359-369.
2. Abdiev A., Khaitov B., Toderich K., Park K.W. Growth, nutrient uptake and yield parameters of chickpea (*Cicer arietinum* L.) enhance by Rhizobium and Azotobacter inoculations in saline soil // Journal of Plant Nutrition, 2019. 42(20), – P. 2703-2714.
3. Ali M.Y. et al. Yield and quality response of chickpea to different sowing dates // Asian journal of research in crop science, 2018. 1(4), -P. 1-8.
4. Aparna K., Rao D.L.N., Manna M.C. Microbial inoculation of chickpea (*Cicer arietinum* L.) enhances rhizosphere effects on soil biological quality // Agrochimica: International Journal of Plant

Chemistry, Soil Science and Plant Nutrition of the University of Pisa, 2014 58(2) – P. 114-125.
5. Daba K. et al. Effect of temperature and photoperiod on time to flowering in chickpea //Crop Science, 2016. V-56(1), – P. 200-208.
6. Devasirvatham V. et al. "High temperature tolerance in chickpea and its implications for plant improvement" // Crop and Pasture Science, 2012. V-63(5), – P. 419-428
7. FAOSTAT. Food and Agriculture Organization of the United Nations. Rome: FAO. 2022. Available online at: https://www.fao.org/faostat/en/#data
8. Gowda C.L., Samineni S.L. Chickpea Research and Development: Current status and future perspectives in the semi-arid tropics // Harnessing Chickpea Value Chain for Nutrition Security and Commercialization of Smalholder Agriculture in Africa, 2016. V-1, -P. 417
9. Gupta N., Gautam A.K., Bhagyawant S.S. Biochemical characterisation of lectin from wild chickpea (*Cicer reticulatum* L.) with potential inhibitory action against human cancer cells // Journal of food biochemistry, 2019. 43(2), – P. 1-9.
10. Jayalakshmi V., Kumar B. S. Nutritional profile of chickpea (*Cicer arietinum* L): Breeding efforts for enhancing nutritive value //Journal of Food Legumes, 2023. 36(2-3). – P. 111-119.
11. Jukanti A.K., Gaur P.M., Gowda C.L.L., Chibbar R.N. Nutritional quality and health benefits of chickpea (*Cicer arietinum* L.): a review // British Journal of Nutrition, 2012. 108(S1), –P. S11-S26.
12. Karthikeyan M. et al. Genetic variability and correlation studies for some quantitative traits in chickpea (*Cicer arietinum* L.) // Pharma Innovation, 2022. 11(1). -P. 1706-1709.
13. Kumar J. S. et al. Assessment of Technology Gap and Productivity Gain through Improved Technology Demonstration in Chickpea // Int. J. Curr. Microbiol. App. Sci, 2018. V-7(9), – P. 2971-2976.
14. Lavrenko S. et al. Chickpea yields and water use efficiency depending on cultivation technology elements and irrigation // AgroLife Scientific Journal. – 2019. V-8(2), -P. 59-64.
15. Mathew S. E., Shakappa D., Rengel Z. A review of the nutritional and antinutritional constituents of chickpea (Cicer arietinum) and its health benefits //Crop and Pasture Science, 2022. V-73(4), – P. 401-414.
16. Matkarimov, F., Kholliyev, O., Fayzullaev, A., Raulova, O., Kulmamatova, D., & Baboev, S. (2024). INFLUENCE OF MICROBIAL FERTILIZERS ON MORPHOLOGICAL, PHYSIOLOGICAL AND VALUABLE ECONOMIC

CHARACTER OF CHICKPEA (CICER ARIETINUM L.). *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering*, *6*(10), 32-42.

17. Murtozayev M.Z. va boshq. O‘simlikshunoslik (darslik) // Toshkent “Fan va texnologiya”. 2012, -B. 141
18. Qulmamatova, D. E., ShSh, A., Matkarimov, F. I., Fayzullaev, A. Z., KhS, N., Kholliyev, O. E., ... & Baboev, S. K. (2024). REGRESSION ANALYSIS OF YIELD-RELATED TRAITS IN CHICKPEA (CICER ARIETINUM L.). *SABRAO Journal of Breeding & Genetics*, *56*(4).
19. Zhang Y, Huang X, Zeng X, Li L, Jiang Y (2023) Preparation, functional properties, and nutritional evaluation of chickpea protein concentrate. Cereal Chemistry 100 (2): 310-320.
20. Донская М. В. и др. Влияние микробиологических препаратов на биохимические показатели развития растений нута и чины //Научно-агрономический журнал, 2024. №. 2, – С. 64-69.
21. Маткаримов Ф.И., Бабоев С.К., Давронов Қ.Д., Қулмаматова Д.Э., Тохирбоева Д.У. Нўхат етиштириш технологияси. Тавсиянома.- «Наврўз» нашриёти, Тошкент, Ўзбекистон, 2020.-24 б.
22. Маткаримов, Ф. И., & Бабоев, С. К. (2022). НЎХАТ ЎСИМЛИГИНИНГ УРУҒ УНУВЧАНЛИГИГА ВА ЎСИШ ДИНАМИКАСИГА МИКРОБИОЛОГИК ЎҒИТЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, *3*(11), 237-241.
23. Маткаримов, Ф. И., Бабоев, С. К., Тохирбоева, Д. У., & Холлиев, О. Э. У. (2020). Влияние биопрепаратов на урожайность бобовых культур. *Academic research in educational sciences*, (1), 314-323.
24. **Сеферова И. В. Эколого-географическая дифференциация нута // Науч.-техн. бюл. ВНИИ растениеводства, 1993, № 230, С. 34-35.**
25. Терещенко Н.Н. Биоудобрения на основе микроорганизмов (учебное пособие). // Томск. 2003. -С.60
26. Чирков В.Н. Донли экинлар // Тошкент “Ўқитувчи” 1975. – В. 209-216

QURITILGAN XURMO MAHSULOTIDAN KUKIN TAYYORLASH TEXNLOGIYASI.

A. M. Nazarov
q.x.f.f.d.,dotsent Toshkent davlat agrar universiteti
E-mail: Nazarov @mail.ru

ANNOTATSIYA.

Xurmoni sublimatsiya usuli bilan quritish muz holatidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bug‘ holatiga aylantirish va shu bilan suyuqlik fazasini chetlab o‘tish orqali vakuum sharoitida muzlatilgan mahsulotdan suvning asosiy qismini olib tashlash quritiladi. Xurmo mevasi turiga va naviga qarab shakli, rangi va mazasini o‘zgartiradi. Mevasi xo‘lligida yeyiladi, kishi salomatligi uchun juda foydalidir. Bundan tashqari uning tarkibida S va R, kaliy, temir, fosfor, glyukoza, saxaroza, kal`tsiy va magniylar mavjud bo‘lib inson organizmi uchun foydali hisoblanada.

Kalit so‘zlar: Xurmo “Olov rang quyosh”, Xitoy shaftolisi, Fuyu, Zendji-marudan, Xiakumeni, S va R, kaliy, temir, fosfor, glyukoza, saxaroza.

Kirish. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritishdan asosiy maqsad yil davomida aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan teng ravishda ta'minlashga imkon beradi. Mavsumda yetishtirilgan katta partiyadagi hosilni barchasini qayta ishlash imkoni yo‘q. Meva va sabzavotlarni quritib saqlash hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan keng tarmoqdir.

Quritish – bu oziq-ovqat mahsulotlarining buzilishini oldini olishning eng qadimgi usullaridan biridir. Quritishning zamonaviy usullari va usullari tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni olish imkonini beradi va ko‘pincha quritilganmahsulotlar yangi mahsulotlarga nisbatan afzalliklarga ega. Quritilgan mahsulotlar kam hajm egallaydi, ozuqaviy moddalarni konsentrlangan holda o‘z ichiga oladi va yaxshi singdiriladi (masalan, quritilgan xurmodan olingan kukun), oziq-ovqat mahsulotlariga qushiladigan qushimchalardir.

Meva kukuni yangi mevalarni suvsizlantirish va ularni maydalash orqali hosil bo‘lgan nozik, quruq moddadir. U yangi mevalarning ta'mi, xushbo‘yligi va ozuqaviy afzalliklarini o‘z ichiga oladi va namlik miqdori bo‘lmagan turli xil mahsulotlarga mevalarni qo‘shishning qulay usulini ta'minlaydi.

Xurmo kukuni bir necha asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1-bosqich: xom ashyoni tanlash. Jarayon yuqori sifatli yangi xurmolarni tanlash bilan boshlanadi. Eng yaxshi sifatli

kukunni ta'minlash uchun xurmolar pishgan, dog‘siz va eng yuqori ta'mga ega bo‘lishi kerak. Kukun tayyorlash uchun ishlatiladigan keng tarqalgan Xiakume, Zendji-maru, Fuyu navlari tanlab olindi.

2-bosqich: tozalash va tayyorlash. Tanlangan mevalar har xil kasalliklardan tozalash uchun kimyoviy moddalardan tozalanadi. pestitsidlar va har qanday qoldiqlarni olib tashlash uchun yaxshilab yuviladi. Tozalashdan so‘ng, ular bir xil quritilishini ta'minlash uchun tozalanadi, yadrodan tozalanadi va kichikroq bo‘laklarga bo‘linadi.

3-bosqich: suvsizlanish (quritish usullari)

Meva kukunini tayyorlashda suvsizlanish juda muhim qadamdir, chunki u buzilishning oldini olish va saqlash muddatini uzaytirish uchun mevalardan namlikni olib tashlaydi. Bir necha quritish usullari qo‘llaniladi:


- Muzlatib quritish: Bu meva kukunini tayyorlashning eng mashhur usuli. Meva bo‘laklari juda past haroratlarda muzlatiladi va keyin vakuum kamerasiga joylashtiriladi. Meva tarkibidagi muzlatilgan suv to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzdan bug‘ga aylanadi va quruq, qarsillab bo‘laklarni qoldiradi. Muzlatilgan quritilgan mevalar ozuqa moddalarining ko‘p qismini, rangi va ta'mini saqlaydi.



- Spray quritish: Bu usul ko‘pincha meva sharbatlari uchun ishlatiladi. Suyuq meva pyuresi yoki sharbati issiq havo bilan kameraga purkash, bu esa suvning bir zumda bug‘lanishiga olib keladi. Quritilgan zarralar nozik kukun sifatida yig‘iladi. Bu usul tez, lekin issiqlik ta'sirida ozuqa moddalarining bir qismini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.
- Havoda quritish yoki pechda quritish: meva bo‘laklari isitiladigan havo yordamida yoki past haroratlarda pechda quritiladi. Bu usul tejamkor, lekin uzoq vaqt issiqlik ta'sirida mevaning rangi, ta'mi va ozuqaviy tarkibiga ta'sir qilishi mumkin.

- Barabanni quritish: Bu qizdirilgan barabanga yupqa qatlamli meva pyuresini yoyishni o‘z ichiga oladi. Baraban aylanayotganda pyuresi quriydi va yupqa, tiniq qatlam hosil qiladi, keyinchalik u kukunga aylanadi. Barabanni quritish samarali, ammo ba'zi ozuqa moddalarining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

1-rasm. Turli haroratlarda quritilgan xurmo mevasining (maydalangan kukun)



vizual rangi o‘zgarishi.

4-bosqich: Silliqlash

Mevalar quritilganidan so‘ng ular maydalagich yoki maydalagich yordamida mayda kukunga aylanadi. Kukun sifatini pasaytirishi mumkin bo‘lgan juda ko‘p issiqlik hosil qilmasdan, kerakli noziklikka erishish uchun silliqlash jarayoni aniq bo‘lishi kerak.

5-bosqich: Elakdan o‘tkazish

Maydalangandan so‘ng, kukun katta zarrachalar yoki bo‘laklarni olib tashlash uchun elakdan o‘tkaziladi. Ushbu qadam bir xil tuzilish va zarracha hajmini ta'minlaydi, bu kukunni boshqa mahsulotlarga aralashtirishni osonlashtiradi.

6-bosqich: Qadoqlash

Keyin xurmo kukuni namlik, yorug‘lik va havodan himoya qilish uchun havo o‘tkazmaydigan idishlarga yoki vakuumli qoplarga qadoqlanadi, bu esa vaqt o‘tishi bilan sifatini yomonlashtiradi. Kontaminatsiyani oldini oladigan va kukunning yangiligini saqlaydigan oziq-ovqat mahsuloti qadoqlaridan foydalanish muhimdir.

Meva kukuni sifatini tekshirish.

Xurmo kukuni sanoat standartlariga javob beradi, ishlab chiqarish jarayonida va undan keyin bir nechta sinovlar o‘tkaziladi:

A) namlik miqdori sinovi

Meva kukunining namligi uning saqlash muddati va sifati uchun juda muhimdir. Yuqori namlik darajasi to‘planish, buzilish va saqlash muddatini qisqartirishga olib kelishi mumkin. Namlik miqdori odatda namlik analizatori yordamida tekshiriladi va maqsad odatda 5% dan past bo‘ladi.

B) mikroblarni tekshirish

Meva kukuni bakteriyalar, xamirturush va mog‘or kabi zararli mikroorganizmlardan xoli bo‘lishi kerak. Mikrob tekshiruvi mahsulotning iste'mol uchun xavfsiz ekanligini ta'minlaydi. Agar kukun oziq-ovqat mahsulotlarida ishlatilsa, bu sinov ayniqsa muhimdir.

C) oziqlanish tahlili

Muhim vitaminlar, minerallar va boshqa oziq moddalar tarkibini tekshirish uchun ozuqaviy tahlil o‘tkaziladi. Ushbu tahlil kukunning ozuqaviy qiymatini aniqlashga yordam beradi va uning kerakli xususiyatlarga mos kelishini ta'minlaydi.

D) sensorli baholash

Sensorli baholash meva kukunining ko‘rinishi, xushbo‘yligi, ta'mi va tuzilishini tekshirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu baholash kukunning yangi mevaning o‘ziga xos ta'mi va xushbo‘yligini saqlab qolishini ta'minlash uchun muhimdir.

E) zarrachalar hajmini tahlil qilish

Zarrachalar hajmining mustahkamligi meva kukunining tuzilishiga va eruvchanligiga ta'sir qiladi. Zarrachalar hajmini tahlil qilish kukunning mo‘ljallangan qo‘llanilishiga mos keladigan bir xil tuzilishga ega bo‘lishini ta'minlaydi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin: Quritishning zamonaviy usullari va usullari tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni olish imkonini beradi va ko‘pincha quritilgan mahsulotlar yangi mahsulotlarga nisbatan afzalliklarga ega. Quritilgan mahsulotlar kam hajm egallaydi, ozuqaviy moddalarni konsentrlangan holda o‘z ichiga oladi va yaxshi singdiriladi, quritilgan xurmodan olingan kukun oziq-ovqat mahsulotlariga qushiladigan qushimchalar sifatida ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmed, J., Ramasvami, H. S. va Raghavan, G. S. V. (2007). Sabzavotlarni quritish va qayta tiklash bo‘yicha sharh: mexanizmlar, matematik modellashtirish, dastlabki ishlov

berish va sifat. Oziq-ovqat muhandisligi jurnali, 104 (4), 466–487. doi:10.1016/j.jfoodeng.2010.12.016

2. Oliveyra, F. A. R., Gomes, S. D. M., Silva, E. K. A., Maia, G. A. va Oliveyra, E. L. (2015). Sabzavotlarni sublimatsiya bilan quritish: ko‘rib chiqish. Muhandislik tadqiqotlari va ilovalari xalqaro jurnali, 5(2), 35–44. http://www.ijera.com saytidan olindi
3. Mujumdar, A. S. va Chjan, Q. (Tahrirlar). (2017). Sabzavot va sabzavot mahsulotlarini quritish bo‘yicha qo‘llanma. CRC matbuot. doi: 10.1201/9781315162096
4. Alibas, I. (2019). Oziq-ovqat sanoatida muzlatish va vakuumda quritish usullarini qo‘llash bo‘yicha sharh. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar va boshqaruv jurnali, 7(3), 1–7. doi: 10.18535/ijsrm/v7i3.01
5. Chjan, M. va Chen, H. (2008). Mikroto‘lqinli pechda muzlatish bilan quritish bo‘yicha sharh. Quritish texnologiyasi, 26(1), 1-7. doi: 10.1080/07373930701736915

GLITSIRRIZIN KISLOTASINI TUZLARI BILAN LAGOXIRZINNI HAR XIL NISBATLARDAGI SUPRAMOLEKULYAR KOMPLEKSLARI SINTEZI

[1]Islomov Akmal Xushvaqtovich, [2]Inxonova Arofat.
[1]O‘zR FA akademik O.S.Sodiqov nomidagi bioorganik kimyo instituti,
e-mail: islomov-72@mail.ru
[2]Alfraganus universiteti Farmatsevtika va kimyo kafedrasi dotsenti v.b.
e-mail: ainxonova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada madaniylashtirilgan *lagochilus inebrians* o‘simligidan adabiyotlarda oldindan malum bulgan usulga asosan lagoxilin(L) olish va u asosida lagoxirzin(LZ) sintez qilish. Lagoxirzin (LZ) bilan Glitsirrizin kislotasini (GK) va glitsirrizin kislotasini monoammoniyli GKMAT tuzi, glitsirrizin kislotasini monokaliyli (GKMKT) tuzini 1:2, 1:4, 1:9 molekulyar nisbatlardagi supramolekulyar kompleks birikmalari olish va ayrim fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini o‘rganish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: lagoxirzin, lagoxilin, glitsirrizin kislotasini monoammoniyli tuzi, glitsirrizin kislotasini monokaliyli tuzi, gidrofob, gidrofil, kompleks

ABSTRACT

This article describes the production of lagoxylin (L) from the cultivated plant Lagochilus inebrians using a method previously known in the literature and the synthesis of lagoxyrizine (LZ) based on it. Information is provided on the preparation of supramolecular complex compounds of glycyrrhizic acid (GA) and monoammonium salt of glycyrrhizic acid (GAMAT), monopotassium salt of glycyrrhizic acid (GPAMAT) in molecular ratios of 1:2, 1:4, and 1:9 with lagoxyresin (LZ), as well as the study of some physicochemical parameters.

Keywords: lagoxyrine, lagoxylin, monoammonium salt of glycyrrhizic acid, monopotassium salt of glycyrrhizic acid, hydrophobic, hydrophilic, complex

KIRISH

Dorivor o‘simliklardan ajratib olinadigan biologik faol birikmalar asosida supramolekulyar komplekslar yaratish ularning fizik-kimyoviy va farmakologik xossalarini yaxshilash imkonini beradi. Lagochilus inebrians o‘simligidan ajratib olinadigan lagoxirzin biologik faol diterpenoid bo‘lib, suvda yomon eruvchanligi va sintez jarayonining murakkabligi uning amaliy qo‘llanilishini cheklaydi. Glycyrrhiza glabra ildizidan olinadigan glitsirrizin kislotasi (GK) va uning monoammoniy hamda monokaliy tuzlari

yuqori gidrofillik va kompleks hosil qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan triterpenoid saponinlardir. Shu sababli lagoxirzinni GK va uning tuzlari bilan supramolekulyar komplekslar holida olish istiqbolli yondashuv hisoblanadi.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Lagochilus turiga mansub o‘simliklar qadimdan samarali qon to‘xtatuvchi dorivor vosita sifatida ma’lum. Lagochilus inebrians o‘simligining suvli va spirtli ekstraktlari gemostatik ta’sirdan tashqari sedativ, gipotensiv, shokka va nurlanishga qarshi hamda dezallergik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan [1]. Ushbu ko‘p yillik o‘simlik iyun–sentabr oylarida gullaydi va dorivor xomashyo sifatida iyul–avgust oylarida yig‘ib olinadi [2].

Lagochilus inebrians o‘simligi vitamin K_1, lagoxilin, flavonoid glikozidlari, askorbin kislota, organik kislotalar, karotin, smola, oshlovchi moddalar hamda kalsiy va temir tuzlariga boy. Barglari tarkibida lagoxilin, efir moyi, yuqori miqdorda oshlovchi moddalar va vitamin C mavjud. Lagoshilus avlodiga mansub o‘simliklardan bir qator tabiiy birikmalar ajratib olingan bo‘lsa-da, ularning aksariyati suvda erimaydi. Ayrim turlardan ajratilgan lagoxirzin birikmasi lakton guruhiga ega bo‘lib, ishqoriy muhitda suvda eruvchi tuz hosil qiladi va “Lagoden” nomi bilan ma’lum [3].

NATIJALAR

Mazkur o‘simliklarda lagoxirzin miqdori past (0,1–0,3 %) bo‘lib, xomashyo zahiralari cheklangan. Lagoxirzin natriy ishqori bilan reaksiyaga kirishib, suvda eruvchi natriy tuzi — “Lagoden”ni hosil qiladi (1-sxema) [3].




lagoxirzin lagoden (lagoxirzinning natriyli tuzi)

1-sxema. Lagoxirzin natriy ishqori bilan reaksiyaga kirishib, lagoxirzinning natriyli tuzi yoki “Lagoden” hosil bo‘lishi.

Lagodenni lagoxilindan sintez qilish amaliy va iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lib, lagoxilin Lagochilus inebrians o‘simligida 2–2,5 % miqdorda uchraydi va Samarqand, Buxoro hamda Navoiy viloyatlarida keng tarqalgan [3]. Lagoden sintezida dastlab lagoxilinni lagoxirzinga aylantirish talab etiladi, biroq lagoxilinni degidrolash jarayoni selektiv


emasligi sababli murakkab aralashmalar hosil bo‘ladi. Shu bois lagoxilin molekulasidagi 15- va 16-holatdagi gidroksil guruhlarni tanlab oksidlash uchun 3- va 18-holatdagi gidroksil guruhlarni himoyalash zarur. Tadqiqotlar lagoxilinning 3,18-holatdagi hosilalarini sintez qilish murakkabligini ko‘rsatgan. Ushbu himoyalash atseton va suvsiz mis sulfat ishtirokida amalga oshirilib, natijada 3,18-O-monoizopropilidenlagoxilin hosil bo‘ladi (4-sxema) [3].



Lagoxilin 3,18-o-monoizopropilidenlagoxilin

2-sxema. 3,18-o-izopropilidenlagoxilin sintezi sxemasi


3,18-o-izopropilidenlagoxilin kaliy permanganat bilan oksidlanganda, izopropilidenlagoxirzinga o‘tadi. Uning sintezi 5-sxemada keltirilgan.



3,18-o-izopropilidenlagoxilin monoizopropilidenlagoxirzin

3-sxema. 3,18-o-monoizopropilidenlagoxirzin sintezi sxemasi

Izopropilidenlagoxirzinni kislotali gidroliz qilinganda lagoxirzin hosil bo‘ladi. Uning sintezi 6-sxemada keltirilgan



izopropilidenlagoxirzin lagoxirzin


4-sxema. Lagoxirzinni sintezi sxemasi



1-rasm. Lagoxirzinni IQ spektri

Lagoxirzinning IQ-spektrida molekuladagi –OH guruhlarining valent tebranishlari 3368 sm^{-1} sohada intensiv holda kuzatiladi. CH_3 va CH_2 guruhlarining valent tebranishlari 2939 va 2887 sm^{-1} da namoyon bo‘ladi. 1782 va 1693 sm^{-1} sohalarda CH_3, CH_2 va CH guruhlarining deformatsion tebranishlariga xos signallar qayd etilgan. Epoksid halqaning simmetrik valent tebranishlari 1160 sm^{-1}, asimmetrik tebranishlari 987 sm^{-1}, deformatsion tebranishlari esa 864 sm^{-1} da aniqlangan. Shuningdek, 1032 sm^{-1} sohada molekuladagi C–O–C va C–OH bog‘larining valent tebranishlari intensiv holda kuzatiladi.

Glycyrrhiza glabra (shirinmiya) o‘simligi ildizidan glitsirrizin kislotasi (GK) hamda uning monoammoniy va monokaliyli tuzlari adabiyotlarda keltirilgan usul asosida ajratib olindi (5-sxema) [4-7].



5-sxema. *Glycyrrhiza glabra* (shirinmiya) o‘simligi ildizi quyuq ekstraktidan GK, GKMAT va GKMKT olish sxemasi

GKMAT tuzini unumi qayta kristallashdan keyin TGK ga nisbatan 28-30% tashkil qilsa, GK ning miqdori o‘rtacha 22-23% ni tashkil etdi. GKMAT ning tozalik darajasi YUSSX usuli (80-82%) yordamida aniqlandi. Supramolekulyar kompleks birikmalarni olish uchun asosan tozalik darajasi 80-82% bo‘lgan GK, GKMAT va GKMKT dan foydalanildi. Ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


GK, GKMAT va GKMK tuzlarini ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari

Moddalar	$T._{suyuq}$ C^0	R_f^* (tizim)	$[\alpha]_D$ 0,5% EtOH (50%)	IQ (ν, sm^{-1})	UB nm

GK (m.og‘.840) Oq kukun	210-213	0,07 (II)	+48	1042,(COC); 1656, (CO) 2873,(CH_3); 2948, (OH) 3247, (OH)	251
GKMAT $3H_2O$ (m.og‘ 894) Och sariq kukun	225-227	0,32 (III)	+40	1042,(COC); 1655, (CO) 2948, (OH); 3239, (OH)	253
GKMKT (m.og‘.878) Oq kukun	280-284	0,30 (III)	+36	1043(COC); 1657(CO) 2948(OH); 3404(OH)	250

*II.Etilatsetat- atseton 5:1, III.Butanol-sirka k-ta-suv 3:1:1,

Organik birikmalar orasidagi molekulalararo ta’sirlar va ushbu ta’sirlanishlar jarayonida qaysi funksional guruhlar ishtirok etayotganliklari haqidagi qimmatli ma’lumotlar, dastlabki moddalar va oxirgi mahsulotlar IQ-spektrlarini taqqoslash asosida olinishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, atsetil almashgan lagoxilin hosilalarining GK va GKMAT bilan supramolekulyar kompleks hosil qilishini baholash jarayoni IQ-spektroskopiya usuli va boshqa fizik-kimyoviy tahlillar asosida olib borildi.




2-rasm. Glitsirrizin kislotasi va monoammoniyli tuzining IQ-spektrlari

GKMAT molekulasining IQ-spektrida –OH va –NH guruhlarining valent tebranishlari 3203,76 sm^{-1} sohada keng intensiv polosalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. CH_3 va CH_2 guruhlarining valent tebranishlari 2927–2870 sm^{-1} oralig‘ida kuzatiladi. 1705 sm^{-1} da

karboksil guruhning karbonil qismiga tegishli valent tebranishi, aglikon qismidagi C_{11} holatdagi karbonil guruh tebranishi esa 1651 sm^{-1} da intensiv signal beradi. Karboksilat ionlariga (COO^-) xos valent tebranishlar 1589 sm^{-1} da o‘rtacha intensivlikda, CH_3 va CH_2 guruhlarining deformatsion tebranishlari esa 1454–1417 sm^{-1} sohalarda kuzatiladi. 1386,82 sm^{-1} da NH_4^+ ionining deformatsion tebranishi qayd etilgan. Molekuladagi C–O–C va C–OH bog‘larining valent tebranishlari 1035,77 sm^{-1} da intensiv namoyon bo‘lib, (=CH) guruhining deformatsion tebranishi 979,84 sm^{-1} da kuzatiladi (5-rasm).[10-14]

NATIJALARNI MUHOKOMA QILISH:

Lagoxirzinning glitsirrizin kislotasi (GK) hamda uning monoammoniy (GKMAT) va monokaliy (GKMKT) tuzlari bilan supramolekulyar komplekslari 50 % atsetondagi eritmalar asosida olingan. Reaksion aralashma xona haroratida 10–12 soat davomida aralashtirilib, so‘ng atseton haydab chiqarilgan va suvli qism liofil quritilgan. Natijada oq va och sariq rangli amorf kukun ko‘rinishidagi supramolekulyar komplekslar olingan. GKMAT asosidagi komplekslarning 0,1 % suvli eritmalari gel hosil qilish xususiyatiga ega. Mazkur ishda birinchi marta Lagoxirzinning GK, GKMAT va GKMKT bilan supramolekulyar komplekslari sintez qilingan bo‘lib, ularning umumiy olinishi 8-sxemada keltirilgan [8-9].



Bu erda: R=H (GK); R=NH_4 (GKMAT); R=K (GKMKT). n=2; 4; 9.

R^1=Lagoxirzin,


6-sxema. GK, GKMAT va GKMKT bilan Lagoxirzinni supramolekulyar komplekslarini olishni umumiy sxemasi

GK, GKMAT va GKMKT bilan Lagoxirzinni supramolekulyar Lagoxirzinning glitsirrizin kislotasi (GK) hamda uning monoammoniy (GKMAT) va monokaliy (GKMKT) tuzlari bilan 1:2, 1:4 va 1:9 molekulyar nisbatlarda supramolekulyar komplekslari sintez qilindi. GK va GKMKT asosidagi komplekslar oq rangli, GKMAT asosidagi komplekslar esa och sariq rangli amorf kukunlar bo‘lib, suvda yaxshi eruvchanlikka ega. Barcha komplekslar optik faol bo‘lib, qutblangan yorug‘lik tekisligini

o‘ngga buradi; ularning asosiy fizik-kimyoviy va spektral xossalari 3-jadvalda keltirilgan [15-17].

IQ-spektr tahlili GK va uning tuzlari asosida olingan komplekslarda lagoxirzinning bog‘lanishda qatnashmaydigan karbonil (C=O) guruhlariga xos tebranishlar 1731–1728 sm^{-1} sohalarda, GK va mono tuzlaridagi karboksil karbonil guruhlariga xos tebranishlar esa 1660–1659 sm^{-1} da namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Karbonil tebranishlarining boshlang‘ich moddalarga nisbatan 65–69 sm^{-1} ga past chastotali sohaga siljishi vodorod bog‘lanishlar hosil bo‘lishini tasdiqlaydi. Shuningdek, lagoxirzinning 3,18-holatdagi gidroksil guruhlariga xos valent tebranishlar 3480–3415 sm^{-1} sohalarda keng polosalar ko‘rinishida kuzatildi (3-rasm).

3- rasm.



Lagoxirzin:GKMKT IK spektri

Sintez qilingan supramolekulyar kompleks birikmalarning suyuqlanish haroratlari parchalanish bilan kechishi glitsirrizin kislotasi (GK) va uning tuzlarining tozalik darajasi 80–82 % atrofida ekanligi bilan izohlanadi. Olingan komplekslar yupqa qatlam xromatografiyasi hamda qutblangan yorug‘likni burish burchagi $[\alpha]D$ orqali tavsiflandi. Lagoxirzinning GK, GKMAT va GKMKT bilan turli molekulyar nisbatlarda komplekslari olinishi boshlang‘ich modda — lagoxirzinni sintez qilish jarayonining ko‘p bosqichliligi va chet eldan keltiriladigan reaktivlar sababli texnologik va iqtisodiy jihatdan murakkab hisoblanadi.

XULOSA

Lagoxirzinning glitsirrizin kislotasi (GK) hamda uning monoammoniy (GKMAT) va monokaliy (GKMKT) tuzlari bilan 1:2, 1:4 va 1:9 molekulyar nisbatlarda supramolekulyar komplekslari sintez qilinib, ularning ayrim fizik-kimyoviy va spektral xossalari bilan tavsiflandi.

Mazkur komplekslarni olish jarayonida boshlang‘ich modda — lagoxirzinni sintez qilishning ko‘p bosqichliligi jarayonni

texnologik jihatdan murakkab hamda iqtisodiy jihatdan qimmat ekanligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zaynutdinov. U.N., Maulyanov. S.A., Islomov. A.X. // Lagochilus avlodiga mansub o‘simliklar kimyosi, biologiyasi va fiziologik xossalari.// Monografiya.Toshkent«Universitet» 2019 B.194

2. Абдурахмонов Т.Р. Гемостатические свойства веществ, выделенных из растений рода зайцегуб (лагохилус), произрастающих в республиках Средней Азии. Андижон 1988.С.1-7

3. Зайнутдинов У.Н. Дитерпеноиды растений рода Lagochilus // Дисс. докт. хим. наук. Т.1993. С.253.

4. Islamov A.Kh., Askarov I.R., Tojiboeva D.Sh. //Study of extraction conditions of *lagochilus inebrians Bunge* plant// Creative teacher Multidisciplinary scientific jornal. Sjif: 4,833 Inpact Factor. ISSN:2181-2330, 5- november 2022. № 23. R.139-144.

5. Islamov A.Kh., Tojiboeva D.Sh // Determination of the amount of mineral elements contained in the inebrin substance // Creative teacher Multidisciplinary scientific jornal. Sjif: 4,833 Inpact Factor. ISSN:2181-2330, 5- november 2022. № 23.R.135-138.

6. Islamov A.Kh., Turaev A.S., Askarov I.R., Mominjonov M.M.// Obtaining oil extract of the lagohil plant and use in traditional medicine. Journal of Chemistry of Goods and Traditional MedicineJ Chem Good Trad Med. Vol.1, Issue 4, 2022-326-337, 2022. DOI: :https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol1.iss4.2022.99 R. 313-325

7. Islamov A.Kh., Turaev A.S., Askarov I.R., Mominjonov M.M.// Study of the hemostatic activity of lagolipd oil on the basis of lagochilus inebrians oil // Journal of Chemistry of Goods and Traditional MedicineJ Chem Good Trad Med, Volume 1, Issue 4, 2022-313-325 2022. DOI: https: //doi.org/ 10.55475 /jcgtm/ vol1. Iss 4. 2022. DOI:https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol1.iss4.2022.100 R.326-337

8. Islomov A.X., Turaev A.S., I.R.Asqarov .// Lagochilus inebrians o‘simligini moylar asosidagi ekstrakti lagolipid yog‘ini gemostatik faolligini o‘rganish.// Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. International scientific-online conference. Germany. Volume 2, Issue 17, November 2022. R. 169-171.

9. Юлдашев Х.А., Муҳамедиев М.Г., Далимов Д.Н., Гафуров М.Б., Михальчик Т.А. Синтез молекулярных комплексов моноаммониевой соли глицирризиновой кислоты с бензойной и салициловой кислотами и исследование вязкости их водных растворов. Кимё ва кимё технологияси. 2011. № 1. Б.24-26.

10. Abdujalilov, I., Eshtursunov, D., Egambergenova, S., Inxonova, A., & Bekchanov, D. (2024). POLIMER YUZASIDA METAL OKSIDI NANOZARRACHALARINI ZOL-GEL USULI YORDAMIDA SINTEZ QILISH VA ULARNING XOSSALARI. Farg'ona davlat universiteti, (6), 113-113.
11. Inxonova, A., & Bekchanov, D. (2024). Oqava suvlarni biologik tozalashda funksional polimer asosida olingan polimer metal komlpleksining qo'llanilishi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(2), 113-123.
12. Inxonova, A., Eshtursunov, D., Botirov, S., Murtazaqulov, M., & Bekchanov, D. (2023). OQAVA SUVLARNI BIOLOGIK TOZALASHDA PVC&PEI ASOSIDA OLINGAN MIS POLIMER KOMLPLEKSNING QO'LLANILISHI. Issue 5 of 2023 (141/1), 5(137), 5-11.
13. Eshtursunov, D. A., Inkhonova, A., Botirov, S., Fayzullayev, Y., Bekchanov, D., & Mukhamediev, M. (2023). Removal of Rhodamine B from Wastewater by Adsorption using Iron Oxide-Polymer Composite Material. Asian Journal of Chemistry, 36(1), 32-36.B
14.Goyibnazarov, I. S. U., Yuldoshov, S. A., Yarmatov, S. S., Yunusov, K. E., Sarymsakov, A. A., Shukurov, A. I. U., ... & Inkhonova, A. (2025). Physico-chemical characteristics of dialdehyde carboxymethylcellulose/sericin graft copolymer. Journal of Polymer Research, 32(6), 205.
15. Islomov A.X., Turaev A.S., Asqarov I.R., Muminjanov M.M. //G*lycyrrhiza glabra* o'simligi xalq tabobatida qo'llanilishi va uning ildizini quyuq ekstraktidan texnik glitsirrizin kislotasi (TGK) ni ajratish va uning tuzlarini olish // ARES, Academic Research In Educational Sciences Vol.3. Issue 10. 2022. ISSN:2181-1385. Gite- Factor:0,89 /SIS:1,12 SJIF 5,7 / UIF:6,1 DOL:10.24412/2181-1385-2022 R.719-728
16. Islamov A.Kh., Turaev A.S., Askarov I.R., Mominjonov M.M.// Glycyrrhiza glabra plant properties, uses in folk medicine and preparation and chemical structures of glycyrrhizin acid salts // Creative teacher Multidisciplinary scientific jornal. Sjif: 4,833 Inpact Factor. ISSN:2181-2330, 5- november 2022. № 23. R.313-321
17.A.Kh. Islamov., A.S. Turaev., I.R. Asqarov., M.M. Mo'minjonov., D.Sh.Tojiboyeva //Rreparation of supramolecular complexes of monoizopropyliden lagoxyline with GK, GKMAT and GKMKT..// Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. International scientific-online conference. Germany. Volume 2, Issue 17, November 2022. 188-192.

TA’LIMNING TRANSFORMATSIYALASHUVI SHAROITIDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Yo`ldasheva Maftuna Jura qizi
ChDPU Pedagogika fakulteti magistranti
Ilmiy rahbar: *p.f.f.d. (PhD) dots*. **I.D.Qodirov**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ta’limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va metodologik asoslarini o‘rganadi. Ta’limdagi o‘zgarishlar, raqamli kompetensiyalarning ta’rifi va ularni rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. Natijalar ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishning muhimligini ko‘rsatadi, muhokamada esa amaliy tavsiyalar beriladi.

Kirish (Introduction)

Zamonaviy ta’lim tizimi raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi va pandemiya kabi omillar ta’sirida jiddiy transformatsiyaga duch kelmoqda. Ta’limning transformatsiyalashuvi – bu an’anaviy o‘qitish usullaridan raqamli platformalar, masofaviy ta’lim va sun’iy intellektga asoslangan tizimlarga o‘tishni anglatadi. Raqamli kompetensiyalar – bu o‘qituvchilar va talabalar tomonidan raqamli texnologiyalarni samarali ishlatish, axborotni qayta ishlash va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada ta’lim transformatsiyasi sharoitida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari o‘rganiladi, chunki bu ta’lim sifatini oshirish va jamiyat rivojiga hissa qo‘shish uchun muhimdir.

Maqsad: Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish va metodologik yondashuvlarni aniqlash.

Metodlar (Methods)

Ushbu tadqiqot asosan nazariy va sifatli xarakterga ega bo‘lib, adabiyotlar tahlili, sintetik yondashuv va kontent-tahlilga asoslangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ta’lim transformatsiyasi sharoitida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish bo‘lib, empirik ma’lumotlar to‘plash o‘rniga mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan. Ma’lumotlar manbalari sifatida xalqaro va mahalliy ilmiy platformalar, jumladan ResearchGate, CyberLeninka, OECD Digital Education Outlook, Google Scholar, Scopus va RUDN Journal kabi manbalar ishlatildi.

Ushbu platformalardan 15 ta asosiy manba tanlab olindi, ularning aksariyati so‘nggi 5-10 yil ichida chop etilgan peer-reviewed maqolalar va hisobotlar bo‘lib, ta’limdagi raqamli transformatsiya va o‘qituvchilar kompetensiyalari mavzulariga oid.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo‘llanildi:

- **Adabiyotlar tahlili:** Raqamli kompetensiyalar va ta’lim transformatsiyasi mavzularidagi manbalarni qamrab olish uchun kalit so‘zlar bo‘yicha qidiruv o‘tkazildi. Masalan, ingliz tilida "digital competencies in educational transformation", "methodological approaches to teacher digital competence", "forming digital skills in teachers" kabi iboralar ishlatildi; rus tilida esa "metodologicheskie podkhody k formirovaniyu tsifrovoy kompetentsii prepodavatelya" va shunga o‘xshash so‘rovlar. Qidiruv natijasida 50 dan ortiq manba ko‘rib chiqildi, ulardan 15 tasi asosiy tahlil uchun tanlab olindi. Tanlov mezonlari: mavzuga moslik, ilmiy asoslanganlik, yangilik (2018-2025 yillar) va xalqaro standartlarga muvofiqlik. Ushbu tahlil orqali mavzuning asosiy tendensiyalari, modellari va qiyinchiliklari aniqlandi.
- Sintetik yondashuv: Topilgan manbalardagi ma’lumotlarni sintez qilish uchun tematik guruhlash va taqqosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Bu yondashuv orqali turli mualliflarning nazariy modellari birlashtirilib, umumiy metodologik ramka yaratildi. Masalan, OECD hisobotlaridagi standartlar va CyberLeninka maqolalaridagi faoliyatga asoslangan yondashuvlar sintez qilindi.
- Metodologik yondashuvlar: Tadqiqotda quyidagi asosiy metodologik yondashuvlar qo‘llanildi, ular o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini modellashtirish va rivojlantirish uchun moslashtirildi:
  - Sistemli yondashuv: Raqamli kompetensiyalarni murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqadi, unda texnologik, pedagogik va ijtimoiy komponentlar o‘zaro bog‘langan. Bu yondashuv ta’lim jarayonida raqamli vositalarni integratsiya qilishni ta’minlaydi va o‘qituvchilarning umumiy rivojlanishini hisobga oladi.
  - Faoliyatga asoslangan yondashuv: O‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalarni amaliy qo‘llashga e’tibor qaratadi. Masalan, masofaviy ta’lim platformalarida interaktiv darslar o‘tkazish va raqamli kontent yaratish jarayonlari tahlil qilinadi.
  - Aksiologik yondashuv: Raqamli muhitda axloqiy va qadriyatli jihatlarni (masalan, axborot xavfsizligi, raqamli adolat) shakllantirishni ta’kidlaydi, chunki ta’lim transformatsiyasi nafaqat texnik, balki qadriyatli o‘zgarishlarni ham talab etadi.
  - Shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuv: Har bir o‘qituvchining individual ehtiyojlari va tajribasini hisobga olib, moslashtirilgan o‘quv dasturlarini taklif etadi. Bu yondashuv orqali raqamli kompetensiyalar shaxsiy rivojlanishning bir qismi sifatida ko‘riladi.

Tadqiqot doirasida raqamli kontent yaratish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun axborot texnologiyalarini (IT) integratsiya qilish modellari batafsil ko‘rib chiqildi. Bunda innovatsion o‘qitish metodologiyalari, jumladan, kognitiv modellar va algoritmlar, shuningdek, raqamli ekotizim yaratish usullari o‘rganildi. Ushbu modellar ta’lim muassasalarida empirik sinovdan o‘tkazish uchun tavsiya etiladi, ammo ushbu tadqiqotda ular nazariy tahlil bilan cheklangan.

Usul	Tavsif	Qo‘llanilgan manbalar soni	Asosiy natija
Adabiyotlar tahlili	Kalit so‘zlar bo‘yicha qidiruv va tahlil	15	Mavzuning asosiy tendensiyalari aniqlanishi
Sintetik yondashuv	Ma’lumotlarni guruhlash va sintez	10	Umumiy metodologik ramka yaratilishi
Metodologik yondashuvlar	Sistemli, faoliyatga asoslangan va boshqalar	8	Kompetensiyalarni modellashtirish modellari

Ushbu metodlar orqali tadqiqotning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligi ta’minlandi, kelajakda empirik tadqiqotlar uchun asos yaratildi. Natijalar (Results)
Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
1. Sistemli yondashuv: Raqamli kompetensiyalarni o‘zaro bog‘langan elementlar tizimi sifatida ko‘rib chiqadi, ta’lim jarayonida texnologiyalarni integratsiya qilishni ta’minlaydi.
2. Faoliyatga asoslangan yondashuv: O‘qituvchilarning professional faoliyatida raqamli vositalarni qo‘llashga e’tibor qaratadi, masalan, masofaviy darslar va interaktiv kontent yaratish.
3. Aksiologik yondashuv: Raqamli muhitda axloqiy qadriyatlar (adolat, mas’uliyat) ni shakllantirishni ta’kidlaydi.
4. Shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuv: Har bir o‘qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, raqamli texnologiyalar orqali shaxsiy rivojlanishni rag‘batlantiradi.
Shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchilar uchun asosiy raqamli kompetensiyalar modellari taklif etiladi: kognitiv modellar va algoritmlar, shu jumladan inkluziv ta’limda raqamli vositalarni ishlatish. Natijalarda raqamli kontent yaratish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun IT integratsiyasi muhimligi ko‘rsatilgan.

Kompetensiya turi	Nazariy asos	Metodologik usul
Axborotni qayta ishlash	Sistemli yondashuv	Analiz va modellashtirish
Raqamli kontent yaratish	Integratsiya modeli	IT vositalari orqali treninglar
Masofaviy o‘qitish	Faoliyatga asoslangan	Interaktiv platformalar

Muhokama (Discussion)

Natijalar ta’lim transformatsiyasi sharoitida raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning muhimligini tasdiqlaydi, ammo qiyinchiliklar mavjud: texnologik infratuzilma yetishmovchiligi va o‘qituvchilarning tayyorgarligi. Ushbu yondashuvlar Qozog‘iston va Rossiya tajribasida muvaffaqiyatli qo‘llanilgan, O‘zbekistonda ham amalga oshirilishi mumkin. Kelajakda empirik tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Xulosa (Conclusion)

Ta’lim transformatsiyasi sharoitida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish nazariy-metodologik asoslarga asoslanishi kerak, bu ta’lim sifatini oshiradi. Taklif etilgan modellar amaliyotda qo‘llanilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Digital competencies of a teacher in the context of educational transformation. ResearchGate, 2025.
2. Methodological approaches to the formation of a teacher's digital competence. RUDN Journal, n.d.
3. Building foundational digital competencies of teachers. Pensoft, n.d.
4. Theoretical foundations of developing competence in digital content creation. Scientists.uz, 2025.
5. Training teachers to work in the conditions of digital transformation. Magnanimitas, n.d.
6. Digital Competencies Of Teachers In The Transformation. Sanad.iau.ir, n.d.
7. Technological and Methodological Aspects. Arab Journals, n.d.
8. Digital Technologies as a Means. EasyChair, 2023.
9. Theoretical Models Explaining the Level. MDPI, n.d.
10. Formation of Digital Competence. Futurity-education, n.d.

MASOFAVIY ONLAYN TA'LIM TIZIMLARINI BOSHQARISH MODELLARI VA ALGORITMLARI

Bekmuxammedov Bunyodbek Nurmuxammad o'g'li
Doktorant, Qo'qon davlat universiteti
bekmuhammedovb@gmail.com

Abduraimov Jur'atbek G 'ofur o'g'li
Katta o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti
juratbekabduraimov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'quv jarayonini avtomatlashtirilgan boshqarishni ta'minlash maqsadida ta'lim jarayonining tavsifini formallashtiruvchi konseptual model ishlab chiqilgan, Modelning o'ziga xos jihati bilimlarni o'zlashtirish darajalari taksonomiyasiga asoslangan holda o'quv trayektoriyalarini amalga oshirish hamda texnologik ta'lim tizimlari arxitekturasi bo'yicha tavsiyalar, samarali boshqaruv talablari va dasturlashtirilgan ta'lim tamoyillaridan birgalikda foydalanish orqali boshqaruvning asosiy bosqichlarini avtomatlashtirishdan iborat, maqolada qo'shimcha kasbiy ta'lim (QKT) dasturlari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etishning turli variantlari uchun avtomatlashtirilgan boshqaruv algoritmlari ishlab chiqilgan bo'lib, ularning farqlovchi xususiyati o'quvchilarning boshlang'ich tayyorgarlik darajasini hisobga olish asosida ta'lim jarayoni parametrlarini moslashtirish hamda o'quv kontenti sifatini baholash uchun axborot to'plash imkoniyatining mavjudligidir, taklif etilgan algoritmlar avtomatlashtirilgan ta'limni boshqarish tizimlarida (LMS) foydalanish uchun o'quv ssenariylarini loyihalash imkonini beradi,shuningdek, ta'lim jarayoni ko'rsatkichlarini ehtimollik asosida baholashga mo'ljallangan matematik modellar majmuasi taklif etilgan bo'lib, ushbu modellar ta'lim jarayoni parametrlariga bog'liq holda ko'rsatkichlar qiymatlarini aniqlash, ta'lim jarayonini rejalashtirish va tartibga solish, jumladan, o'quv kontenti sifatini baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim tizimlari, ta'lim jarayonini avtomatlashtirilgan boshqarish, adaptiv ta'lim algoritmlari, bilimlarni o'zlashtirish darajalari, o'quv jarayonini modellashtirish, ta'limni boshqarish tizimlari (LMS).

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim sohasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan (MTT) faol foydalanilishi bilan tavsiflanadi. Masofaviy ta'lim (MT) ayniqsa o'z kasbiy faoliyatidan ajralmagan holda malakasini oshirishi zarur bo'lgan mutaxassislar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli MTT qo‘shimcha kasbiy ta’lim (QKT) tizimida, xususan, malaka oshirish tizimida keng qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy masofaviy ta’lim jarayonining texnologik asosi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari hamda maxsus dasturiy ta’minot — masofaviy ta’limni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari (Learning Management Systems, LMS) hisoblanadi. QKT dasturlari bo‘yicha masofaviy ta’lim uchun ishlab chiqilayotgan o‘quv kurslari o‘quvchilarning mustaqilligi va bilish faolligini rivojlantirishni, shuningdek, LMS funksional imkoniyatlaridan foydalanish va tarmoq o‘qituvchisining ta’lim jarayonini boshqarishda faol ishtiroki orqali har bir o‘quvchiga maksimal darajada shaxsiylashtirilgan yondashuvni ta’minlashi lozim.

Umumiy holda boshqaruv samaradorligi deganda boshqaruv faoliyatining umumiy natijasining ushbu natijaga erishish uchun sarflangan resurslar miqdoriga nisbati tushuniladi. Boshqaruv axborot jarayoni sifatida qaralganda, unda quyidagi bosqichlar ajratiladi: rejalashtirish, hisobga olish, nazorat va tahlil, shuningdek, tartibga solish.

Mavjud boshqaruv modellari va algoritmlarini tahlil qilish natijasida bir qator kamchiliklar aniqlangan: ta’lim jarayonini avtomatlashtirishda dasturlashtirilgan ta’lim tamoyillari, texnologik ta’lim tizimlari arxitekturasi bo‘yicha tavsiyalar hamda samarali boshqaruv talablarining kompleks tarzda qo‘llanilmasligi; o‘quv trayektoriyalarini shakllantirishda o‘quv materialini o‘zlashtirish darajalari taksonomiyasidan foydalanilmasligi; ta’lim jarayonini rejalashtirish va tartibga solish, jumladan, o‘quv kontenti sifatini baholash uchun ta’lim jarayoni ko‘rsatkichlarini baholash imkoniyatining mavjud emasligi. Ta’lim jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruvning maksimal avtomatlashtirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni modellari va boshqaruv algoritmlarini ishlab chiqish zarurati aniqlangan. Ta’lim jarayonini rejalashtirish va tartibga solish uchun esa QKT dasturlari bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy variantlari ko‘rsatkichlarini baholash imkonini beruvchi ehtimollik modellarini ishlab chiqish talab etiladi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida, xususan, qo‘shimcha kasbiy ta’lim sohasida erkin tarqatiladigan LMS tizimlaridan keng foydalanilmoqda.

Materiallar va usullar. Ushbu tadqiqot masofaviy ta’lim tizimlari uchun bilimlar bazasini shakllantirish jarayonini ontologik va formal-matematik modellashtirish asosida tadqiq etishga qaratilgan. Tadqiqotda deskriptiv mantiq, ontologik modellar (TBox/ABox), algebraik tuzilmalar hamda algoritmik yondashuvlardan foydalanildi. Ta’lim jarayonining axborot asosini muayyan o‘quv kursi uchun ishlab chiqilgan, ta’lim maqsadlariga muvofiq shakllantirilgan va modullar bo‘yicha

tuzilgan o‘quv kontenti tashkil etadi. Kurs o‘quv modullari majmuasi ko‘rinishida shakllantirilgan bo‘lib, har bir modul o‘quv elementlari va ta’lim ssenariysini o‘z ichiga oladi. O‘quv kontentini tavsiflashni formallashtirish bosqichi ta’lim maqsadlari va ularning bajarilishini tekshirish mezonlarini shakllantirishni; ta’lim maqsadlarini o‘quv materialini o‘zlashtirish darajalari bilan bog‘lashni; o‘quvchining boshlang‘ich tayyorgarlik darajasini tekshirish mezonlarini ishlab chiqishni; o‘quv elementlarini shakllantirish va ularni ta’lim maqsadlariga muvofiq modullarga birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim ssenariysini tavsiflashni formallashtirish bosqichi esa ta’lim jarayoni ishtirokchilarini aniqlashni, baholash shkalasini tanlashni, o‘quv elementlari ketma-ketligini va o‘quv trayektoriyalarini LMS funksiyalarini ko‘rsatgan holda shakllantirishni, shuningdek, kirish va oraliq nazorat natijalari bo‘yicha o‘tish shartlarini, teskari aloqalarni va ta’lim jarayonini yakunlash shartlarini belgilashni qamrab oladi.


Ta’lim maqsadlarini tavsiflashni formallashtirish uchun bilimlarni o‘zlashtirishning uch darajasi qo‘llaniladi: “tanib olish” darajasi (a_1), “qayta tiklash” darajasi (a_2) va “qo‘llash” darajasi (a_3). Mazkur darajalar asosida kirish testlarini amalga oshirish uchun o‘quvchining boshlang‘ich tayyorgarlik darajasini tekshirish mezonlari shakllantiriladi.

O‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchi bir yoki bir nechta o‘zlashtirish darajalaridan o‘tishi lozim. Boshqaruvning maqsadi o‘quvchining belgilangan o‘zlashtirish darajasiga minimal qadamlar sonida erishishini ta’minlashdan iborat. Har bir o‘zlashtirish darajasi LMS funksional imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan o‘quv elementlari ketma-ketligini ifodalaydi. Har bir o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha ta’lim natijasi nazorat bosqichida aniqlanadigan o‘zlashtirish darajasi $Q(a_i)$ bilan belgilanadi. Odatda test topshiriqlarini o‘z ichiga olgan a_1 darajasida nazorat va teskari aloqa LMS vositalari yordamida avtomatik tarzda amalga oshiriladi (ochiq turdagi topshiriqlardan foydalanilgan holatlar bundan mustasno). a_2 va a_3 darajalari uchun esa amaliy topshiriqlar nazarda tutilib, ular qabul qilingan baholash shkalasiga muvofiq o‘qituvchi tomonidan qo‘lda baholanadi (avtomatik trenajyorlar va emulyatorlardan foydalanilgan holatlar bundan mustasno).

Natijalar va muhokamalar. Avtomatik baholash holati uchun o‘zlashtirish darajasining chegaraviy qiymatlari tajriba yo‘li bilan aniqlangan bo‘lib, ular ta’lim jarayoni parametrlaridan biri sifatida moslashtirilishi mumkin. Umumiy holda $Q(a_i) < 0,7$ (ya’ni 70 foizdan kam to‘g‘ri javoblar) bo‘lganda bilim va ko‘nikmalar shakllanish bosqichida deb hisoblanadi; $Q(a_i) = 0,7$ qiymati chegaraviy (minimal zarur) o‘zlashtirish darajasiga, $Q(a_i) = 1$ esa i-darajadagi o‘zlashtirishning maksimal darajasiga mos keladi.

Shunga ko‘ra, $Q(a_i) \geq 0,7$ bo‘lganda keyingi o‘zlashtirish darajasiga o‘tiladi, $Q(a_i) < 0,7$ bo‘lganda esa joriy o‘zlashtirish darajasi doirasida ta’lim jarayoni davom ettiriladi. Zarur tekshiruvlarni amalga oshirish uchun ta’lim ssenariysiga kirish va oraliq nazorat natijalari bo‘yicha o‘tish shartlari, teskari aloqa mexanizmlari hamda ta’lim jarayonini yakunlash shartlari kiritiladi.

Ta’lim jarayoni modelini qurish va samarali boshqaruv talablarini amalga oshirish uchun asos sifatida dasturlashtirilgan ta’lim tamoyillari — ierarxiyalilik, boshqaruv tizimining siklik tashkil etilishi, bosqichma-bosqich o‘quv jarayoni hamda ta’lim sur’atini individuallashtirish tamoyillari qo‘llaniladi. Ishlab chiqilgan ta’lim jarayonining konseptual modeli 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm – IDEF3 funksional modellashtirish metodologiyasi asosida ishlab chiqilgan ta’lim jarayonining konseptual modeli

Taklif etilgan modelda o‘quv kontenti va amaliy topshiriqlardan foydalanilgan holda avtomatlashtirilgan ta’lim ssenariysi doirasida ta’lim jarayoni tasvirlangan bo‘lib, u o‘zlashtirishning har bir darajasi bo‘yicha belgilangan tayyorgarlik darajalariga erishishga yo‘naltirilgan. Model tavsifi funksional modellashtirishning IDEF3 metodologiyasi asosida amalga oshirilgan va quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- asosiy ishlar ketma-ketligi ko‘rinishida ifodalangan funksional bloklar (P1–P12);

- ishlarning bajarilish vaqtidagi ketma-ketligini hamda axborot oqimlarini aks ettiruvchi bog‘lanishlar (strelkalar orqali ko‘rsatilgan);
- hodisalarning birlashuvi va tarmoqlanish shartlarini ifodalovchi kesishmalar (J1–J8).


Taklif etilgan model ta’lim jarayonini avtomatlashtirilgan boshqarish algoritmlarini, shuningdek, uni rejalashtirish va tartibga solish modellarini loyihalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qo‘shimcha kasbiy ta’lim (QKT) dasturlari bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil etishning quyidagi variantlari uchun o‘quvchining belgilangan o‘zlashtirish darajasiga erishishini ta’minlovchi harakatlar ketma-ketligini aniqlovchi algoritmlar ishlab chiqilgan:

- o‘quv moduli doirasida ta’lim bosqichlari soni cheklangan jarayon bo‘lib, bunda maksimal qadamlar soni m_{max} belgilanadi va ushbu chegaraga yetilgach ta’lim jarayoni yakunlanadi; bunda har bir qadamda urinishlar soni ixtiyoriy bo‘lishi mumkin;
- talab etiladigan tayyorgarlik darajasiga erishish uchun urinishlar soni cheklangan jarayon bo‘lib, bunda har bir qadam uchun maksimal urinishlar soni n_{max} belgilanadi va ushbu chegaraga yetilganda ta’lim jarayoni ham yakunlanadi.

Algoritmlar parametrlariga boshlang‘ich va belgilangan o‘zlashtirish darajalari qiymatlari, urinishlar soni, ta’lim bosqichlari soni hamda tayyorgarlik darajalarining chegaraviy qiymatlari kiradi. Algoritmlarda o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasini hisobga olish orqali ta’lim jarayoni parametrlarini moslashtirish hamda o‘quv kontenti sifatini baholash uchun zarur bo‘lgan axborotni yig‘ish mexanizmlari nazarda tutilgan.

Ta’lim bosqichlari soni cheklangan jarayon algoritmining strukturaviy sxemasi 2-rasmda keltirilgan . Ta’lim jarayonini tashkil etishning istalgan variantida har bir bosqichda o‘quvchining tayyorgarlik darajasi $Q(a_i)$ tekshiriladi va u chegaraviy qiymat bilan solishtiriladi. Ta’lim jarayonini tashkil etish variantiga bog‘liq holda tayyorgarlik darajasini tekshirish natijalariga ko‘ra turli harakatlar amalga oshirilishi mumkin bo‘lib, ushbu holatlar matematik modellar yordamida tadqiq etilgan.



2-rasm – Ta’lim bosqichlari soni cheklangan jarayon algoritmining strukturaviy sxemasi

Ta’lim jarayonini rejalashtirish va tartibga solish maqsadida boshqaruv tizimining bazaviy modeli hamda ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy variantlari modellarini o‘z ichiga olgan matematik modellar majmuasi taklif etilgan. Bazaviy model boshqaruv tizimini ifodalaydi, bunda boshqaruv obyekti sifatida o‘quvchi qaraladi hamda unga boshqaruvchi ta’sirlar va tasodifiy xalaqitlar ta’sir ko‘rsatadi.

Boshqaruvchi ta’sirlar $u(t_k)$ta’lim ssenariysi, o‘quv kontenti hamda kurs o‘quv rejasi va o‘qitish metodikasi doirasida tarmoq o‘qituvchisining amalga oshiradigan harakatlari bilan belgilanadi. Xalaqitlar $\mathrm{P}(t_k)$ esa o‘quv rejalari va o‘qitish metodikalarida oldindan nazarda tutilmagan tasodifiy omillarning boshqaruv obyektiga ta’sirini ifodalaydi (masalan, o‘quvchining individual xususiyatlari). Har bir modul bo‘yicha ta’lim jarayoni vaqtning diskret lahzalari (bosqichlari) to‘plamida ko‘rib chiqiladi, bu yerda $k = 1, 2, \dots, M, 0 < M < \infty$

Har bir kkk-bosqichda boshqaruv obyektiga boshqaruvchi ta’sirlar $u(t_k)$ va xalaqitlar $\beta(t_k)$ ta’sir etadi, buning natijasida obyektning holati $N(t_k)$ o‘zgarishi mumkin. Obyekt holati

bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga mos keladi va u 0 dan belgilangan o‘zlashtirish darajasi $\bar{N}$ gacha bo‘lgan oraliqda o‘zgaradi, ya’ni $\bar{N}(0 < N(t_k) < \bar{N})$

Boshqaruvning maqsadi mazkur o‘quv moduli uchun loyihalash bosqichida belgilangan $\bar{N}$ holatiga obyektni yetkazishdan iborat. Obyektning joriy holati quyidagi tarzda o‘zgarishi mumkin: qiymat bir birlikka oshadi (keyingi o‘zlashtirish darajasiga o‘tish) yoki o‘zgarmay qoladi (o‘zlashtirish darajasi avvalgidek saqlanadi).

Vaqtning har bir t_k lahzasida (ya’ni k -qadamda) obyekt $N(t_{k-1})$ holatida bo‘lganida boshqaruvchi ta’sirlarning mumkin bo‘lgan qiymatlari diskret tasodifiy kattalik $u\left(t_k, N(t_{k-1})\right)$, orqali aniqlanadi, bu yerda $k = 1,2, \dots, \bar{M}$. Ushbu tasodifiy kattalik ma’lum ehtimollik bilan 1 qiymatini, hamda $q_0\left(t_k, N(t_{k-1})\right)$ ehtimolligi bilan 0 qiymatini qabul qiladi.

Agar $u\left(t_k, N(t_{k-1})\right) = 1$ bo‘lsa, bu t_k vaqt lahzasida obyekt holatining yuqoriroq o‘zlashtirish darajasiga o‘tish imkoniyati mavjudligini anglatadi, bunda $0 \le N(t_{k-1}) < \bar{N}$, sharti bajariladi. Agar $u\left(t_k, N(t_{k-1})\right) = 0$ bo‘lsa, bu t_{k-1} qiymatining saqlanib qolishini bildiradi.

Boshqaruvchi ta’sir $u\left(t_k, N(t_{k-1})\right) = 0$ holati, masalan, o‘quv kontentining sifati past bo‘lganda yoki nazorat topshiriqlari o‘quv kontenti mazmuniga mos kelmaganda yuzaga keladigan vaziyatga mos keladi.

Vaqtning har bir t_k lahzasida obyekt $1 < N(t_{k-1}) < \bar{N}$ holatida bo‘lganda xalaqitlarning mumkin bo‘lgan qiymatlari diskret tasodifiy kattalik $\beta\left(t_k, N(t_{k-1})\right)$ bilan aniqlanadi. Ushbu tasodifiy kattalik $p_1\left(t_k, N(t_{k-1})\right)$ ehtimolligi bilan 1 qiymatini va mos ravishda 0 qiymatini qabul qiladi.

Bunda $\beta\left(t_k, N(t_{k-1})\right) = 1$ bo‘lishi t_k vaqt lahzasida obyekt $N(t_{k-1})$, holatida turgan paytda xalaqit mavjudligini bildiradi, $\beta\left(t_k, N(t_{k-1})\right) = 0$ esa xalaqitning mavjud emasligini anglatadi.

Berilgan vaqt lahzalari to‘plami t_k, bu yerda $k = 1, 2, \dots, \bar{M}$, da mumkin bo‘lgan boshqaruvchi ta’sirlar majmui boshqaruvning u vektori hamda ularga mos ehtimolliklar q vektori orqali aniqlanadi:

$$u(\{t_k\}, \{N(t_k)\}) = \left(u\left(t_1, N(t_0)\right), u\left(t_2, N(t_1)\right), \dots, u\left(t_{\bar{M}}, N(t_{\bar{M}-1})\right)\right), \quad (1)$$

$$q(\{t_k\}, \{N(t_k)\}) = \left(q_1\left(t_1, N(t_0)\right), q_1\left(t_2, N(t_1)\right), \dots, q_1\left(t_{\bar{M}}, N(t_{\bar{M}-1})\right)\right). \quad (2)$$

Berilgan vaqt lahzalari to‘plami t_k, bu yerda $k = 1, 2, \dots, \bar{M}$, da mumkin bo‘lgan xalaqitlar majmui xalaqitlar β vektori va ularga mos ehtimolliklar **p** vektori orqali aniqlanadi:

$$\beta(\{t_k\}, \{N(t_k)\}) =$$
$$\left(\beta\left(t_1, N(t_0)\right), \beta\left(t_2, N(t_1)\right), \dots, \beta\left(t_{\bar{M}}, N(t_{\bar{M}-1})\right)\right), \quad (3)$$

$$p(\{t_k\},\{N(t_k)\}) = \left(p_1\left(t_1, N(t_0)\right), p_1\left(t_2, N(t_1)\right), \dots, p_1\left(t_{\bar{M}}, N(t_{\bar{M}-1})\right)\right). \quad (4)$$

Boshqaruvchi ta'sirlar va xalaqitlarni hisobga olgan holda obyektning t_k vaqt lahzalaridagi holati, bu yerda $k = 1, 2, \dots, \bar{M}$, umumiy holda quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$N(t_k) = N(t_{k-1}) + u\left(t_{k,}\, N(t_{k-1})\right)\left(1 - \beta\left(t_k, N(t_{k-1})\right)\right) \quad (5)$$

Boshqaruvchi ta'sirlar va xalaqitlar qiymatlari tasodifiy kattaliklar bo'lganligi sababli, o'quvchining holati ham har bir vaqt lahzasida tasodifiy kattalik hisoblanadi. Shu munosabat bilan o'quvchining holati har bir qadamda qanday o'zgarishini tavsiflovchi ehtimolliklarni aniqlash mumkin.

O'quvchining holati navbatdagi qadamda oshish ehtimolligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P(N(t_k) = N(t_{k-1}) + 1) = q_1\left(t_k, N(t_{k-1})\right)p_0\left(t_k, N(t_{k-1})\right) \quad (6)$$

O'quvchining holati o'zgarmay qolish ehtimolligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P\left(N(t_k) = N(t_{k-1})\right) = q_1\left(t_k, N(t_{k-1})\right)p_1\left(t_k, N(t_{k-1})\right) +$$
$$q_0\left(t_k, N(t_{k-1})\right)p_1\left(t_k, N(t_{k-1})\right) + q_0\left(t_k, N(t_{k-1})\right)p_0\left(t_k, N(t_{k-1})\right) \quad (7)$$

Bazaviy model asosida qo'shimcha kasbiy ta'lim (QKT) dasturlari bo'yicha ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy variantlari uchun modellar ishlab chiqilgan, xususan, ta'lim bosqichlari soni cheklangan ta'lim jarayoni modeli hamda urinishlar soni cheklangan ta'lim jarayoni modeli. Har bir model uchun ta'lim jarayonining quyidagi ko'rsatkichlarini hisoblash formulalari keltirilgan:

- belgilangan o'zlashtirish darajasiga ma'lum qadamlar sonida erishish jarayonining ijobiy va salbiy natijalari ehtimolliklari;
- belgilangan o'zlashtirish darajasiga erishilgunga qadar bo'lgan o'rtacha qadamlar soni;
- ma'lum qadamlar soni davomida muayyan o'zlashtirish darajasida bo'lish ehtimolligi.

Xulosa

Ta'lim jarayonini boshqarish samaradorligi o'quv kursining ta'lim muhiti avtomatlashtirish darajasini oshirish, ta'lim bosqichlarining o'rtacha sonini kamaytirish hamda ta'lim jarayoni va o'quv kontenti parametrlarini moslashtirish hisobiga belgilangan o'zlashtirish darajasiga erishish ehtimolligini oshirish orqali yuksaltirildi.

O'quv kontenti va ta'lim ssenariylarini formallashtirilgan holda tavsiflash metodikasi taklif etildi. Ushbu metodikaning o'ziga xos jihati o'quv materialini o'zlashtirish darajalari

taksonomiyasi hamda zamonaviy masofaviy ta’lim texnologiyalari sohasidagi standartlar talablariga asoslangan dasturlashtirilgan ta’lim tamoyillaridan foydalanishdan iborat. Mazkur metodikani qo‘llash avtomatlashtirilgan ta’lim jarayonida foydalanish uchun interoperabel o‘quv kontenti va ta’lim ssenariylarini shakllantirish imkonini berdi.

Ta’lim jarayonining tavsifini formallashtiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Modelning o‘ziga xos jihati bilimlarni o‘zlashtirish darajalari taksonomiyasiga asoslangan holda o‘quv trayektoriyalarini amalga oshirish hamda texnologik ta’lim tizimlari arxitekturasi bo‘yicha tavsiyalar (IEEE LTSA standarti), samarali boshqaruv talablari va dasturlashtirilgan ta’lim tamoyillaridan birgalikda foydalanish orqali boshqaruvning asosiy bosqichlarini avtomatlashtirishdan iborat. Model tavsifi funksional modellashtirishning IDEF3 metodologiyasi asosida bajarilgan.

Adabiyotlar.

1. Лифанов, Л. Е. Способы повышения эффективности управления процессом обучения на основе дистанционных образовательных технологий / А. Е. Лифанов // Информатизация образования и пауки. - 2014. - № 1(21). - С. 57-68.
2. Yakubov M.S. “Katta masshtabli ta’lim sohasi elektron hujjat almashinuvi texnik va tashkiliy ta’minoti.” *Barqarorlik va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnali*, vol. 3, no. 12, 20 Dec. 2023, pp. 163–170.
3. Bekmuxammedov B. “The development strategy and importance of online education system.” *DTAI–2024 1.DTAI*, 2024, pp. 436–439.
4. Якубов М.С. “Таълим тизимида электрон хужжат айланишини ташкил этиш тамойиллари.” *Pedagogs*, no. 54, 2024, pp. 113–118.
5. Mansurova M.Y. Bekmukhammedov Bunyodbek, and Jumaboev Behzod. “Optimizing workforce dynamics: a comparative analysis of regional.” *JournalNX*, vol. 10, no. 3, 2024, pp. 1–7.
6. Якубов М.С. “Таълим тизимида структуралашган маълумотлар алмашинувининг ўзига хос хусусиятлари.” *Iqro Indexing*, vol. 8, no. 2, 2024, pp. 247–254.
7. Bekmuxammedov B.N., Fayzullayev Sh.Sh. “Online ta’limda sun’iy intelektning qaror qabul qilishga va online ta’limga tasiri.” *Journal of IQRO – ЖУРНАЛ ИҚРО – IQRO JURNALI*, vol. 12, no. 1, 2024, pp. 102–110. https://www.worldlyknowledge.uz/index.php/iqro/issue/archive
8. Бекмухаммедов Б., Тохтасинов А. “Разработка моделей дистанционного обучения в системе непрерывного профессионального образования.” *YANGI O‘ZBEKISTON,*

YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, vol. 3, no. 1, 2025, pp. 99–105.

9. Бекмукхаммедов Б. “Artificial intelligence and machine learning technologies in forming online education systems.” *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок*, vol. 1, no. 3, 2025, pp. 230–235.
10. Yakubov M.S. and Bekmukhammedov B.N. “Shaxsga yo‘naltirilgan onlayn ta’lim tizimida sun’iy intelektni qo‘llash.” *Al-Farg’oniy avlodlari*, vol. 1, no. 1, 2025, pp. 35–39.

XURMO MEVASINI SUBLIMATSION USULDA QURITISH TEXNLOGIYASI.

Nazarov A. M
dotsent.,
Muydinova O. Sh
magistr.
Toshkent davlat agrar universiteti
E-mail:nazarov @mail.ru

Annotatsiya. Xurmoni sublimatsiya usuli bilan quritish muz holatidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bug‘ holatiga aylantirish va shu bilan suyuqlik fazasini chetlab o‘tish orqali vakuum sharoitida muzlatilgan mahsulotdan suvning asosiy qismini olib tashlash quritiladi. Xurmo mevasi turiga va naviga qarab shakli, rangi va mazasini o‘zgartiradi. Mevasi xo‘lligida yeyiladi, kishi salomatligi uchun juda foydalidir. Bundan tashqari uning tarkibida S va R, kaliy, temir, fosfor, glyukoza, saxaroza, kal`tsiy va magniylar mavjud bo‘lib inson organizmi uchun foydali hisoblanada.

Kalit so‘zlar: Xurmo “Olov rang quyosh”, Xitoy shaftolisi, Fuyu, Zendji-marudan, Xiakumeni, S va R, kaliy, temir, fosfor, glyukoza, saxaroza.

Kirish. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritishdan asosiy maqsad yil davomida aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan teng ravishda ta'minlashga imkon beradi. Mavsumda yetishtirilgan katta partiyadagi hosilni barchasini qayta ishlash imkoni yo‘q. Meva va sabzavotlarni quritib saqlash hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan keng tarmoqdir.

Quritish – bu oziq-ovqat mahsulotlarining buzilishini oldini olishning eng qadimgi usullaridan biridir. Quritishning zamonaviy usullari va usullari tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni olish imkonini beradi va ko‘pincha quritilganmahsulotlar yangi mahsulotlarga nisbatan afzalliklarga ega. Quritilgan mahsulotlar kam hajm egallaydi, ozuqaviy moddalarni konsentrlangan holda o‘z ichiga oladi va yaxshi singdiriladi (masalan, quritilgan xurmodan olingan kukun), oziq-ovqat mahsulotlariga qushiladigan qushimchalardir.

Xurmo mevasi — subtropik o‘simlik bo‘lib, uning juda ko‘p turlari bor. Xurmo yovvoyi holda Xitoyda o‘sib, undan Yaponiya va MDH davlatlarga keltirilgan. Gruziya, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirim va Qora dengiz qirg'oqlarida o‘sadi. U barg to‘kuvchi, 6-12 m baland


o‘suvchi, bir yoki ikki jinsli o‘simlik. Gullari bir yillik novdalarda paydo bo‘ladi.

Xurmo mevasi turiga va naviga qarab shakli, rangi va mazasini o‘zgartiradi. Mevasi xo‘lligida yeyiladi, kishi salomatligi uchun juda foydalidir.

Quruq mahsulot tayyorlashning texnologik jarayonlari – uzish, tashish, saqlash, navlarga ajratish, yuvish, mevalarni kesish, dudlash, quritish, namini baravarlash, qutilarga joylab, saqlashga ko‘yishdan iborat. Xurmo navlar Tamopan, Zenji-maru, Xiakume navlari qo‘ritishga mos keladi.

Mevalarni quritish asrlar davomida oziq ovqat mahsulotlarini saqlashning an'anaviy usuli bo‘lib kelmoqda, bu odamlarga yig‘im terim mavsumidan keyin ham mevalarning ta'mi va ozuqaviy moddalardan bahramand bo‘lish imkonini beradi. Mavjud bo‘lgan turli xil texnikalar orasida sublimatsiya usuli xurmoni quritish uchun zamonaviy va innovatsion yondashuv sifatida ajralib turadi.

Issiqlikni o‘z ichiga olgan an'anaviy quritish usulidan farqli, sublimatsiya usuli xurmoni ta'mini, rangini va ozuqaviy tarkibini saqlab qolgan holda namlikni yumshoq tarzda olib tashlashi mumkin bo‘lgan noyob jarayonni taklif qiladi. Sublimatsiya oziq ovqat mahsulotlarini saqlash, suyuqlik holatidan o‘tmasdan muzning to‘g‘ridan to‘gri suv bug‘iga aylanishini ta’minlaydi. Bu jarayonda muzlatilgan suv molekulalarining suyuqlik fazasini butunlay chetlab o‘tib, qattiq holatdan gaz holatiga o‘tishiga imkon beruvchi maxsus harorat va bosim sharoitida sodir bo‘ladi.



Sublimatsion usulda quritish oziq-ovqat mahsulotlarining tuzilishi va kimyoviy tarkibini o‘zgartirmaydi. Bu suyuqlikni muzlatish xususiyatlariga asoslanadi. Usulning mohiyati mahsulotni suvning mikrokristallanishi sodir bo‘ladigan tezlikda sovutishdir. Ammo bu oddiy muzlatish emas, chunki muz kristallarining hajmi suyuq moddaning boshlang'ich hajmiga nisbatan oshmaydi. Bu yerda asosiy mezon harorat rejimi emas, balki muzlash tezligi.

Birinchi bosqichda mahsulot sovutiladi va uning +20 ºS boshlang'ich harorati 0 S ga tushiriladi.

Ikkinchi bosqichda sovutish 0 S dan -5 ºS gacha bo‘ladi, bu davr kreoskopik nuqta deb ataladi va bu butun muzlatish jarayonining natijasi uchun juda muhimdir. Agar bu muddat uzoq vaqt bo‘lsa, unda mahsulot hujayralaridagi kristallar katta bo‘ladi. Shok muzlatishning



uchinchi va oxirgi bosqichi bo‘lgan muzlash vaqtida harorat -5 ºS dan -18 ºS gacha tushadi. Endi qattiq fazaga o‘tish sodir bo‘ladi va u yakuniy bo‘ladi va shu tufayli bunday mahsulotlarni uzoq muddatli saqlash mumkin.

Sublimatsion usulda quritish jarayoni ikkita asosiy bosqichdan iborat:

1. Quritish: Qattiq modda, masalan meva yoki sabzavot past haroratda va bosim ostida joylashtiriladi. Bu bosqichda qattiq moddadan suv bug‘lariga o‘tadi, natijada quruq mahsulot hosil bo‘ldi.

2. Kondensatsiya: Bug‘lar keyinchalik kondensatsiyalangan holda to‘planadi va chiqariladi. Bu jarayon odatda vakuumli sharoitlarda amalga oshiriladi, bu esa suvning qaynatish haroratini pasaytiradi.

Albatta bu bosqichlar natijasida meva va sabzavotlarda bir qancha fizik-kimyoviy o‘zgarishlarga uchraydi:

- suvning sublimatsiyasi:quritish jarayonida meva yoki sabzavotdagi suv qattiq holatdan(muz) gaz holatiga(bug‘) o‘tadi. Bu jarayon natijasida suv suyuqlik holatiga o‘tmasdan to‘g‘ridan - to‘g‘ri gazga aylanishini anglatadi.

- oziq moddalar konsentratsiyasi:suvning bug‘lanishi natijasida meva va sabzavotlarda qoldiq oziq moddalar, vitaminlar va mineral moddalar konsentratsiyasi oshishi natijasida ularning ta’mi va foydali xususiyatlarini saqlashga yordam beradi.

- kimyoviy reaktsiyalar:quritish bosqichida meva sabzavotlarning kimyoviy tarkibida bir qancha o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin. Masalan, antioksidantlar va vitaminlar ya’ni C vitamini(askorbin kislotasi) ba’zan yuqori harorat va bosimda parchalanishi mumkin.

- rang o‘zgarishi:quritish jarayonida pigmentlar(masaln,xlorofil)kimyoviy o‘zgarishlarga uchraydi, bu esa meva va sabzavotlarning rangini o‘zgartirihi mumkin. Bu o‘zgarishlar odatda yashilmeva va sabzavotlarning qorayishiga olib kelishi mumkin.

- hujayra tuzilishining o‘zgarishi:suv miqdori kamayishi bilan meva va sabzavotlarning hujayra tuzilishidagi o‘zgarishlar ro‘y beradi, bu albatta ularning qattiqligiga va teksturasiga ta’sir qiladi. Hujayralar qisqarishi natijasida mahsulotlar quruq va yengil bo‘ladi.

- fermentatsiya jarayoniga ta’siri:quritish jarayonida fermentativ jarayon susayadi yoki to‘xtaydi, bu esa mahsulotning mikroorganizmlar faoliyati natijasida chirishini sekinlashtiradi va saqlash davomiyligini uzaytiradi.

Bu o‘zgarishlar natijasida sublimatsion quritish jarayonining samaradorligi va mahsulot sifatining oshishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda xurmo navlarni sublimatsion usulda quritish parametrlari keltirilgan.

Xurmo navlarni sublimatsion usulda quritish natijalari.

1-jadval.

№	Xurmo navlari	Quritishga qo‘yilgan xurmolar soni, dona	Quritishga qo‘yilgan xurmo mevalarining og'irligi, gr	Quritish harorati (^{0}C)	Quritishga ketgan vaqt, soat
1	Xiakume (nazorat)	10	1850	45-60	8-12
2	Zendji-maru	17	1600	45-60	8-12
3	Fuyu	12	1250	45-60	8-12

Yuqoridagi olib borilgan tajribamizni fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari shakar miqdori 20-22%, S vitamini - 15.39 mg /%, kaliy - 100, natriy - 12,9, kaltsiy - 16,6, magniy - 9,3 va temir - 0,6. Shuni ham ta'kidlash kerakki, xurmo mevasi tarkibida yod miqdori yuqori - 0,63 mg%, tashkil etadi. Quritilgan xurmo tanovvul qilish oshqozon-ichak trakti, jigar faoliyati, ko‘rish qobiliyatini yaxshilaydi, buyrakdagi toshlardan xalos etadi, yurak faoliyatini mustahkamlaydi, gipertoniya va shishlarga qarshi, anemiya, yo‘talga qarshi kurashadi va teri jinsiy bezlar faoliyatini tartibga soladi.

XULOSA

O‘tkazilgan ikki yillik tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, tajriba o‘tkazilgan ikki yil davomida xurmo mevasini sublimatsion quritish orqali asosiy oziq moddalarni saqlab qolgan holda saqlash muddatini uzaytirishga qaratilgan. Turli xil quritish usullari orasida sublimatsiya o‘ziga xos yondashuvi bilan ajralib turadi.

REFERENCES

1. Axmed, J., Ramasvami, H. S. va Raghavan, G. S. V. (2007). Sabzavotlarni quritish va qayta tiklash bo‘yicha sharh: mexanizmlar, matematik modellashtirish, dastlabki ishlov berish va sifat. Oziq-ovqat muhandisligi jurnali, 104 (4), 466–487. doi:10.1016/j.jfoodeng.2010.12.016

2. Oliveyra, F. A. R., Gomes, S. D. M., Silva, E. K. A., Maia, G. A. va Oliveyra, E. L. (2015). Sabzavotlarni sublimatsiya bilan quritish: ko‘rib chiqish. Muhandislik tadqiqotlari va ilovalari xalqaro jurnali, 5(2), 35–44. http://www.ijera.com saytidan olindi

3. Mujumdar, A. S. va Chjan, Q. (Tahrirlar). (2017). Sabzavot va

sabzavot
mahsulotlarini quritish bo‘yicha qo‘llanma. CRC matbuot. doi: 10.1201/9781315162096
4. Alibas, I. (2019). Oziq-ovqat sanoatida muzlatish va vakuumda quritish usullarini qo‘llash bo‘yicha sharh. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar va boshqaruv jurnali, 7(3), 1–7. doi: 10.18535/ijsrm/v7i3.01
5. Chjan, M. va Chen, H. (2008). Mikroto‘lqinli pechda muzlatish bilan quritish bo‘yicha sharh. Quritish texnologiyasi, 26(1), 1-7. doi: 10.1080/07373930701736915

G‘ARB VA SHARQ TAFAKKURINING, IBN XALDUN MEROSIGA TA’SIRI.

Ochilov Baxtiyor Shuhrat o‘g‘li
Navoiy innovatsiyalar universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Email. Baxtiyorochilov7777@gmail.com
+998933056227

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ibn Xaldunning falsafiy qarashlari tahlil qilinadi, shuningdik, uning asabiya (ijtimoiylashuv jarayoni) va umron (sivilizatsiyalshuv jarayoni) konsipsiyasining shakllanish jarayoniga Yunon va Markaziy Osiyolik allomalar falsafasining g‘oyaviy tasiri borligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Ibn Xaldun, Asabiyya, Tafakkur, Umron, Tarix falsafasi, Antik falsafa, Markaziy Osiyo allomalari, Sivilizatsiya nazariyasi, Muqaddima, Tamaddum

Аннотация: В статье анализируются философские взгляды Ибн Халдуна, а также рассматривается идейное влияние философии греческих и среднеазиатских ученых на формирование его концепций асабийи(процесса социализации) и умрана (процесса цивилизации)

Ключевые слова: Ибн Халдун, Асабия (социальная сплоченность), Мышление, Умран (цивилизация), Философия истории, Античная философия, Ученые Центральной Азии, Теория цивилизации, Мукаддим, Культура

Annotation: This article analyzes Ibn Khaldun's philosophical views, and examines the ideological influence of the philosophy of Greek and Central Asian scholars on the formation of his concepts of asabiyya (the process of socialization) and umran (the process of civilization).

Keywords: Ibn Khaldun, Asabiyyah, Thinking, Umran (Civilization), Philosophy of History, Greek Philosophy, Central Asian Scholars, Theory of Civilization, Muqaddimah, Civilization.

Kirish

Tarix, sotsiologiya va falsafada be’nazir nazariy qarashlarni yaratgan buyuk mutafakkir, yuksak tafakkur egasi Ibn Xaldun mersining durdonasi Muqaddima asarida “asabiya” va “umron” tushunchalarining mazmun mohiyati batafsil yoritilishga harakat qilinib, jamiyat taraqqiyoti, sivilizatsiya va hayot tiskini tushuntirishning nazariy asoslarini yaratgan. Ibn Xaldun idialistik tafakkurining shakillanishida yunon faylasuflari, ayniqsa Aristotil, shuningdik Markaziy Osiyo allomalari -Abu Nasr farobiy, Ibn Sino va Beruniyning kuchli ta’siri seziladi. Maskur maqolada mutafakkir

dunyoqarashing shakllanishiga ta’sir qilgan manbalar, shuningdik, zamonaviy ilm-fan olimlari tamonidan olib borilgan izlanishlarida mutafakkirning ijtimoiy birlik va davlat rivojlanishiga oid qarashlarini yoritishda izlanishlar olib borilgan.

Natija va tahlillar

Ikkinchi uyg‘onish davrining vakili Ibn Xaldunning “Muqaddima” asari Yevropa tafakkurining yuksalishida muhim manba bo’lib xizmat qildi. Xususan, mutafakkirning tarixiy jarayonlariga bergan tarixiy tahlillari XVII asrda o‘rganila boshlandi. Bu jarayon XIX asrda ilmiy jihatdan qiziqish orttrib, Yevropa ijtimoiy-falsafasiga yangiliklar olib keldi. Shuningdek, Yevropa ilm-fanida jamiyat qatlamidagi kishilarda pastivistik haraktlar kuzatilish boshlangan vaqtda ilim fanga yangicha dunyoqarashning kirib kelishi olimlarda ko`plab yangi ilmiy izlanishga o`zgacha yondashuvlarning shakillanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Mutafakkirning ilmiy merosini o‘rgangan Fransuz sharqshunosi Ernest Renan “islom dunyosidagi yagona tarixiy tafakkur egasi” [1] sifatida ta’riflab, mutafakkir qarashlarini antik falsafasi bilan uyg‘unlikda tahlil qildi. Mutafakkirning “Muqaddima” asarida qadimgi antik davr olimlarining tamaddum haqidagi qarashlari va mantiq ilmiga oyid fikrlari olimning ilmiy mersoida aks etgan. Yunon faylasufi Arastu, musulmon renesansi vakili Farobiy va Ibn Sinolarning falsafiy yondashuvlariga befarq bo‘lmagan. Ibn Xaldun, Ibn Sino falsafiy qarashlarida Faraboiy dunyoqarshi ta’sri borligini, ijtimoiy-falsafiy muhokamalarda Farobiy qarashlarini davom ettirganligini ko‘rsatib, yuqori ijtimoiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilib tizimlashtirib, yangi bosqichga ko‘tardi[2]. Ibn Sino jamiyat qonuniyat asosida jadallashuvini ta’kitlab, bu voqiylik jarayonlari ichki tartibotga mustahkam tayangan holda, mazmun biridan ikkinchisiga o‘tib borishi zaruriyat, imkoniyat, voqiylik, sababiyat singari belgilar vosidasida ro‘y berishini oshkor etgan[3]. Mutafakkir bu jarayonlarni kuzatib olamni zaruriy vujud va imkoni vujudga bo‘ladi, bular sabab va oqibat munosabatlarining shakillanishining o‘zginasi ekanligini e’tirof etib, jarayonlashuv davomida ikka holat ham biri birini o‘rnini davom ettiradi va tartibli ketma ketligida amalga oshishini olam va odam birligi qonuyati bilan izohlaydi.

Mutafakkir ijodini o‘rgangan ingliz tarixshunosi Arnold Toynbee (1889–1975) ning izlanishlari o‘rinli sanaladi. Tarixshunosning monimintal asari (Tarixni o‘rganish)da sivilizatsiyalarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va qulashi tahlil qilgan va bu borada Ibn Xaldunning firlarini o‘rinli sanaydi. A. Toyenbeening, sivilizatsiyalarning hayot tskilini – tug‘ilish, o‘sish va tanazzul haqidagi qarashlari

[1] Ernest R. De la philosophie péripatétique chez les Arabes, Paris, 1952, p. 35.
[2] Қаюмова А.Т. Ибн Халдуннинг илмий-фалсафий мероси. Бухоро. 2021. Б-56.
[3] Қаюмова А.Т. Ибн Халдуннинг илмий-фалсафий мероси. Бухоро. 2021. Б-56.

shakillanishida, Ibn Xaldunning “asabiyya” (ijtimoiy birdamlik) nazariyasi unga ilom mabaayi bo‘lib xizmat qilgan[4]. Mutafakkirning ijtimoiy birlashuv va tarix siklik tabiyatiga oid qarashlarining sivilizatsiyon nazariyasi haqidagi qarashlari uchun “sotsiologiya otasi”[5] deb ta’riflagan. Ibn Xaldunning tamaddum va umron haqidagi o‘tkir fikr va nazariyalari faransuz, ingliz, va nemis olimlarniga ilhom manbayi bo‘lib xizmat qildi. Hayotiy sharoyitlar va tarix zarvaraqlarida sulola nufuzining pasayishi Ibn Xaldun qarashlarining shakllanishiga yorqin asos bo‘la oladi[6]. Bugungi kun olimlarining nazariy fikrlari bilan taqqoslaganda, G‘arb ilim-fani bilan raqobatlasha oladigan sharq mutafakkirlarining eng yuqori cho‘qqisi sifatida baholanadi.

Xulosa

Mutafakkirning tarixiy jarayonlarga nazariy yondashuvi, analitik fikrlari va jamiyatni bir butun tizimini yaratishdagi harakatlari bois, ilim-fan vakillarining bahs-munozararalari markazidagi yirik shaxsga aylandi. Muqaddima asari tarixiy voqiyalar to‘plami emas balki, tarixiy hodisalarni nazariy jihatdan tahlil qilgan asar sifatida etiroflanadi. Mutafakkirning Antik yunon falsafasi va islomiy falsafa uyg‘unligini aks ettirgan “Muqaddima” asari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

[4] Arnold, T. A Study of History. Oxford: Oxford University Press, 1972, p. 71
[5] Arnold, T. A Study of History. Oxford: Oxford University Press, 1972, p. 72
[6] Umli! A. LTiistoire et son discours: essai sur la methodologie dTbn Khaldoun. Rabat, 1979. B-5[illegible].

NEYROPLASTIKLIK – MIYA O‘ZGARISH QOBILIYATI VA UNING AHAMIYATI

Sherzodbek Ikromovich Jaloliddinov
Normal anatomiya kafedrasi assistenti
Nozimaxon Ubaydullo qizi Iskandarova
FJSTI, Davolash ishi yo‘nalishi 2 - bosqich 25.24-guruh talabasi.
nozimaiskandarova04@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada neyroplastiklik — ya’ni inson miyasining o‘zgarish, moslashish va yangilanishga qodirligi haqida so‘z yuritiladi. Miya tuzilmasining o‘rganish, tajriba va tashqi omillar ta’sirida qanday o‘zgarishi ilmiy asosda tahlil qilingan. Neyroplastiklikning ta’lim, sog‘liqni saqlash, psixologiya va kognitiv rivojlanishdagi o‘rni, shuningdek uni rivojlantirish usullari yoritib berilgan. Maqola orqali inson salohiyatining cheklanmaganligi va miya faoliyatining doimiy takomillashuvchanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Neyroplastiklik, miya faoliyati, asab hujayralari (neyronlar), o‘rganish jarayoni, reabilitatsiya, kognitiv rivojlanish, moslashuvchanlik, psixologik tiklanish, miyani rivojlantirish.

NEUROPLASTICITY – THE BRAIN’S ABILITY TO CHANGE AND ITS IMPORTANCE

Annotation. This article explores the concept of neuroplasticity — the brain’s ability to change, adapt, and reorganize itself throughout life. It discusses how the brain modifies its structure and function in response to learning, experience, or external influences. The significance of neuroplasticity in education, healthcare, psychology, and cognitive development is analyzed. The paper also highlights methods to enhance neuroplasticity and emphasizes the limitless potential of the human brain to grow and improve.

Keywords: Neuroplasticity, brain function, neurons, learning process, rehabilitation, cognitive development, adaptability, psychological recovery, brain training.

НЕЙРОПЛАСТИЧНОСТЬ – СПОСОБНОСТЬ МОЗГА К ИЗМЕНЕНИЯМ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие нейропластичности — способности человеческого мозга

изменяться, адаптироваться и обновляться на протяжении всей жизни. Раскрываются механизмы изменения структуры и функций мозга под воздействием обучения, опыта и внешней среды. Проанализирована роль нейропластичности в образовании, медицине, психологии и когнитивном развитии. Также приведены эффективные способы стимулирования нейропластичности и подчёркивается безграничный потенциал человеческого мозга к развитию и самосовершенствованию.

Ключевые слова: Нейропластичность, функции мозга, нейроны, процесс обучения, реабилитация, когнитивное развитие, адаптивность, психологическое восстановление, тренировка мозга.

KIRISH

Inson miyasi eng murakkab va sirli organlardan biri sanaladi. Ilm-fanning rivojlanishi natijasida aniqlanishicha, miya nafaqat bolalik davrida, balki butun hayot davomida o‘zgarish, moslashish va yangilanish qobiliyatiga ega. Bu hodisa neyroplastiklik miyaning yangi tajriba, o‘rganish yoki muhit ta’siriga javoban o‘z tuzilishi va funksiyalarini o‘zgartirish qobiliyati sifatida izohlanadi. Ilmiy tarixda uzoq vaqt davomida miyaning tuzilmasi tug‘ilishdan keyin deyarli o‘zgarmaydi, degan qarash hukmron bo‘lgan. Biroq, XX asr oxirlarida va XXI asrda olib borilgan tajriba-tadqiqotlar bu nazariyani rad etdi. Masalan, Michael Merzenich va hamkasblari maymunlardagi his qiluvchi korteks xaritalarini mikrokartalash usullari orqali tiklashga muvaffaq bo‘lishdi, bu miyaning kattalar yoshidagi plastikligini namoyon etdi. Shuningdek, Nobel mukofoti laureati Eric Kandelning xotira va sinapslarning o‘zgarishi bo‘yicha ishlari neyroplastiklikning molekulyar va hujayra darajasidagi mexanizmlarini ochib berdi. Ushbu ilmiy kashfiyotlar miyaning o‘zini qayta tashkil etish va moslashish qobiliyatini tushunishda muhim poydevor bo‘ldi. Hayotda uchraydigan real misollardan biri — doimiy ravishda muvozanatini yo‘qotib, ko‘p yiqilib yuradigan bir ayol. Uning holati neyroplastiklikka asoslangan terapiyalar yordamida sekin sekin yaxshiladi va u kundalik hayot faoliyatini qayta tiklay oldi. Bunday voqealar miyaning moslashuvchanligini amalda tasdiqlaydi. Ushbu maqolada neyroplastiklikning nazariy asoslari, inson sog‘lig‘i va kognitiv rivojlanishdagi o‘rni, ta’limdagi qo‘llanishi, reabilitatsiya jarayonlari va uni faol rivojlantirish usullari keng yoritiladi. Maqsad — neyroplastiklik tushunchasini chuqur anglab, uning inson hayotidagi ahamiyatini namoyish qilishdir.

ASOSIY QISM

Neyroplastiklik — bu inson miyasining yangi tajribalar, o‘rganish yoki tashqi muhit ta’siriga javoban o‘z tuzilishi va funksiyalarini o‘zgartirish qobiliyatidir. An’anaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, miya tuzilishi tug‘ilishdan keyin deyarli o‘zgarmasligi, ya’ni neyronlarning soni

va ularning bog‘lanishlari hayot davomida o‘zgarmasligi ta’kidlangan edi. Biroq, so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bu fikrni rad etdi va inson miyasi doimiy o‘zgaruvchan, moslashuvchan tizim ekanligini ko‘rsatdi. Miya doimiy ravishda yangi ma’lumotlarni qabul qiladi, sinapslar neyronlar orasidagi aloqa nuqtalari o‘zgaradi, yangi neyronlar shakllanadi yoki mavjud bog‘lanishlar kuchayadi yoki zaiflashadi. Bu jarayonlar orqali miya o‘z funksiyalarini qayta tashkil qiladi va yangi vazifalarni o‘zlashtiradi. Neyroplastiklik insonning o‘rganish qobiliyati, xotirasi, kognitiv rivojlanishi va hatto shikastlanishdan keyingi tiklanishida muhim rol o‘ynaydi.

Neyroplastiklikning asosiy mexanizmi neyronlar orasidagi sinapslarning o‘zgarishi va yangilanishidir. Neyronlar miyaning asosiy asab hujayralari bo‘lib, ular orasidagi signal almashinuvi sinapslar orqali amalga oshadi. O‘rganish yoki yangi tajriba paytida ba’zi sinapslar kuchayadi, boshqalari esa zaiflashadi yoki butunlay yo‘qoladi.

Shuningdek, miyada yangi neyronlar paydo bo‘lishi jarayoni neyrogenez ayniqsa xotira va o‘rganishda muhim rol o‘ynaydigan gippokampus sohasida faol kechadi. Neyroplastiklik ikki asosiy shaklda namoyon bo‘ladi:

Strukturaviy neyroplastiklik: Strukturaviy plastiklikda miyada yangi neyronlar paydo bo‘ladi, bu jarayon neyrogenez deb ataladi. Bundan tashqari, mavjud neyronlar o‘rtasida yangi bog‘lanishlar hosil bo‘ladi yoki eskilari yo‘qoladi. Bu jarayonlar miyadagi yangi ma’lumotlarni qabul qilish va uzoq muddatli xotirani shakllantirish uchun juda muhimdir. Masalan, yangi til o‘rganish yoki murakkab musiqiy asbob chalish miyaning strukturaviy o‘zgarishlariga olib keladi.

Funksional neyroplastiklik: Bu miyaning turli sohalari o‘z vazifalarini qayta taqsimlashga qodir bo‘lgan holatidir. Ya’ni, miya biror jarohat yoki kasallik tufayli zararlanganda, uning sog‘lom qismlari shikastlangan sohaning funksiyalarini o‘z zimmasiga oladi. Bu hodisa ayniqsa insult yoki miya jarohatlaridan keyin yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, insult natijasida bemor so‘zlashish, harakat qilish yoki eslab qolish kabi muhim kognitiv funksiyalarni yo‘qotishi mumkin. Ammo neyroplastiklik jarayonlari tufayli, miyaning boshqa, sog‘lom qismlari bu yo‘qotilgan vazifalarni o‘zlashtirishi va ularni bajara boshlashi mumkin. Bu jarayon reabilitatsiya va tiklanishning asosiy mexanizmi sanaladi. Funksional plastiklik miya faoliyatining qayta tashkil etilishiga olib keladi. Uni samarali faollashtirish uchun fizioterapiya, nutq terapiyasi, neyrofeedback kabi maxsus mashqlar va muolajalar keng qo‘llaniladi. Bu terapiyalar miyada yangi sinapslar hosil bo‘lishini rag‘batlantirib, bemorning sog‘lig‘ini tiklash jarayonini tezlashtiradi.

Yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish ham neyroplastiklik jarayonlari orqali yuz beradi. Bolalikda va hatto

kattalar yoshida yangi tillarni o‘rganish, musiqa asbobini chalish yoki murakkab sport turlari bilan shug‘ullanish miyada yangi sinapslar hosil bo‘lishini rag‘batlantiradi. Bu esa kognitiv qobiliyatlarning oshishiga olib keladi.

Maxsus mashqlar, fizioterapiya va neyrofeedback kabi usullar neyroplastiklikni faollashtiradi va insult yoki boshqa asab tizimi kasalliklaridan keyingi tiklanish jarayonini tezlashtiradi. Misol uchun, “The Brain That Changes Itself” kitobida keltirilgan ayol doimiy yiqilib yurishdan keyin neyroplastiklik asosida reabilitatsiya qilingan va asta-sekin tiklangan. Michael Merzenich neyroplastiklik sohasidagi dunyoga mashhur olimlardan biri hisoblanadi va uning tadqiqotlari “The Brain That Changes Itself” kitobida keng yoritilgan. Ushbu kitob Norman Doidge tomonidan yozilgan bo‘lib, neyroplastiklik haqidagi eng mashhur va ilmiy manbalardan biridir. Kitobda neyroplastiklikning haqiqiy hayotdagi namunalari va uning inson salomatligi hamda hayot sifatini yaxshilashdagi roli haqida hikoya qilinadi.

Masalan:

1. Doimiy ravishda muvozanatini yo‘qotib, ko‘p yiqilib yurgan ayol neyroplastiklik asosidagi maxsus mashqlar yordamida sog‘aygan va kundalik hayot faoliyatini qayta boshlagan.
2. Bolalikda aqlli bo‘lmagan deb baholangan bir ayol, miyadagi plastiklik tufayli maxsus treninglar va mashqlar yordamida o‘zini tiklab, normal hayot kechirgan. Shuningdek, kitobda miyani o‘rgatish, xotira va diqqatni yaxshilash uchun neyroplastiklikdan qanday foydalanish mumkinligi haqida ilmiy asoslangan maslahatlar mavjud.

MUHOKAMA

Neyroplastiklik tushunchasi va uning inson miyasidagi roli haqida ilmiy ma’lumotlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, inson miyasining moslashuvchanligi va o‘zgarish qobiliyati nafaqat bolalikda, balki butun umr davomida davom etadi. Bu fikr ilgari mavjud bo‘lgan “miyaning tug‘ilishdan keyin o‘zgarmasligi” nazariyasini inkor etadi va so‘nggi tadqiqotlar bilan to‘liq tasdiqlanmoqda. Michael Merzenich va Eric Kandel kabi olimlarning ishlari neyroplastiklikning molekulyar, hujayra va tizim darajalarida qanday amalga oshishini aniq ko‘rsatib berdi. Bu esa miyaning qanday qilib o‘z vazifalarini qayta taqsimlashi va yangi vazifalarni o‘zlashtirishi mumkinligini tushunishga yordam beradi. Maqolada keltirilgan amaliy misollar insultdan keyingi reabilitatsiya va muvozanatni yo‘qotgan bemorning tiklanishi neyroplastiklikning inson salomatligi va hayot sifatini yaxshilashdagi amaliy ahamiyatini namoyish qiladi. Maxsus mashqlar va terapiyalar, jumladan neyrofeedback, fizioterapiya va nutq terapiyasi, ushbu jarayonlarni faollashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Shu bilan birga, nazariyalar va misollar kelajakda neyroplastiklikni yanada chuqurroq o‘rganish zaruratini ko‘rsatadi. Xususan, miyada yangi neyronlar paydo bo‘lishi (neyrogenez) jarayoni va uning yoshga bog‘liq o‘zgarishlari, shuningdek, neyrofeedback kabi usullarning samaradorligini yanada kengroq tahlil qilish lozim. Cheklovlari sifatida, neyroplastiklikka oid ayrim ilmiy nazariyalar va usullar bo‘yicha ko‘proq eksperimental ma’lumotlarning zaruriyati ta’kidlanadi. Neyrofeedback kabi yangi texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha keng qamrovli klinik tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

NATIJA

Neyroplastiklik inson miyasi uchun muhim xususiyat bo‘lib, uning yangi tajriba, o‘rganish va shikastlanishlardan keyin tiklanish jarayonida o‘z tuzilishi va funksiyalarini o‘zgartirish qobiliyatini ifodalaydi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar, xususan Michael Merzenich va Eric Kandelning ishlari, bu jarayonlarning molekulyar va tizim darajasidagi mexanizmlarini ochib berdi. Neyroplastiklik inson salomatligini yaxshilash, reabilitatsiya jarayonlarini samarali qilish va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

XULOSA

Maqolada keltirilgan ma’lumotlar asosida inson miyasi butun umr davomida moslashish va o‘zini qayta tashkil qilish qobiliyatiga ega ekanligi aniqlandi. Neyroplastiklik orqali miyaning shikastlangan qismlari vazifalarni sog‘lom qismlarga yuklashi va yangi bog‘lanishlar hosil qilishi mumkin. Ushbu jarayonni rag‘batlantirish uchun maxsus terapiya va mashqlar samarali vosita hisoblanadi. Kelajakda neyroplastiklikni yanada chuqur o‘rganish va uni amaliyotda keng qo‘llash inson salomatligi va hayot sifatini yaxshilashda muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Neuroplasticity." *Wikipedia*, 2025.
2. "Michael Merzenich." *Wikipedia*, 2025.
3. Nobel Prize Organization. "Eric R. Kandel – Biographical." *NobelPrize.org*, 2000.
4. Doidge, N. *The Brain That Changes Itself*. Viking Penguin, 2007.

DISKRET TUZILMALARNI OPTIMALLASHTIRISHDA GRAFLAR NAZARIYASINING SAMARALI ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNING MURAKKABLIK TAHLILI

Ishkobilov Farrux Xayrilloyevich
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, dotsenti
farruxishqobilov@gmail.com
ORCID: 0009-0004-9712-564X

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola diskret tuzilmalarni optimallashtirish masalalarini yechishda graflar nazariyasiga asoslangan samarali algoritmlarni ishlab chiqish va ularning hisoblash murakkabligini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada diskret obyektlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni grafik modellar orqali ifodalashning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Eng qisqa yo‘l, maksimal oqim, minimal qamrovchi daraxt va moslashtirish kabi klassik optimallashtirish masalalari asosiy e’tiborga olingan.

Kalit so‘zlar: graflar nazariyasi, diskret optimallashtirish, algoritmlar, murakkablik tahlili, graf modellari, Big-O, minimal daraxt, qisqa yo‘l, oqimlar, NP-masalalar, hisoblash samaradorligi, modellashtirish.

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari va hisoblash tizimlarining jadal rivojlanishi murakkab diskret tuzilmalarni samarali qayta ishlash va optimallashtirish masalalariga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Diskret optimallashtirish masalalari transport tarmoqlari, kompyuter tarmoqlari, logistika, ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili kabi ko‘plab sohalarda uchraydi. Ushbu masalalarni yechishda eng qulay matematik apparatlardan biri graflar nazariyasi hisoblanadi.

Graflar nazariyasi diskret obyektlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarni tugunlar va qirralar orqali ifodalash imkonini beradi. Bunday yondashuv murakkab tizimlarni soddalashtirib, ularning tuzilmasini aniq va formal ko‘rinishda tasvirlashga xizmat qiladi. Aynan shu xususiyat graflarni optimallashtirish masalalarini modellashtirishda universal vositaga aylantiradi.

Diskret tuzilmalarni optimallashtirishda asosiy muammo nafaqat optimal yechimni topish, balki ushbu yechimni minimal hisoblash resurslari yordamida aniqlashdan iborat. Shu sababli algoritmlarning hisoblash murakkabligi muhim mezon sifatida qaraladi. Murakkablik tahlili

algoritmning amaliy qo‘llanish imkoniyatini belgilab beruvchi asosiy nazariy ko‘rsatkichlardan biridir.

So‘nggi yillarda graflar asosidagi algoritmlar katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash, real vaqt rejimidagi hisoblashlar va cheklangan resursli muhitlarda qo‘llanilishi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, NP-murakkablik sinfiga mansub masalalar uchun taxminiy va evristik algoritmlarni ishlab chiqish masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi diskret tuzilmalarni optimallashtirishda graflar nazariyasining samarali algoritmlarini tizimli tahlil qilish, ularning hisoblash murakkabligini baholash hamda amaliy qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Olib borilgan tadqiqot metodologiyasi diskret matematika, algoritmlar nazariyasi va hisoblash murakkabligi nazariyasining fundamental tushunchalariga asoslanadi. Dastlab diskret tuzilmalar graflar orqali modellashtiriladi va har bir masala uchun mos graf turi tanlanadi. Yo‘naltirilgan va yo‘naltirilmagan graflar, og‘irlikli va og‘irliksiz graflar optimallashtirish masalalarining turiga qarab qo‘llaniladi.

Metodologiyaning asosiy bosqichi sifatida klassik graf algoritmlari tanlab olingan. Jumladan, eng qisqa yo‘l masalalari uchun Dijkstra va Bellman - Ford algoritmlari, minimal qamrovchi daraxt uchun Kruskal va Prim algoritmlari, maksimal oqim masalalari uchun Ford - Fulkerson va Edmonds - Karp algoritmlari tahlil qilingan. Har bir algoritmning vaqt murakkabligi va xotira talablari alohida ko‘rib chiqilgan.

Algoritmlarning samaradorligini baholashda asimptotik tahlil usuli qo‘llanilgan. Big-O notatsiyasi yordamida algoritmlarning eng yomon holatdagi ishlash vaqti baholangan. Bu yondashuv turli hajmdagi graflar uchun algoritm tanlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili jarayonida graflar nazariyasining klassik va zamonaviy manbalari o‘rganildi. Dastlabki fundamental ishlar Euler, Cayley va Königlarning olib borgan tadqiqotlarini ko‘zdan kechirganimizda quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Keyingi bosqichda algoritmik graf nazariyasining rivoji Knuth, Cormen va Tarjanlar o‘zlarining ilmiy izlanishlarida o‘rgangan bo‘lib, zamonaviy tadqiqotlarida esa katta hajmdagi graflar, parallel va taqsimlangan algoritmlar masalalari yetakchi o‘rin egallaygan.

Shuningdek, NP-to‘liq masalalarni yechishda taxminiy algoritmlar va evristik yondashuvlar bo‘yicha olib borilgan ilmiy

ishlar tahlil qilingan. Bu masalalarda aniq optimal yechim topish ko‘p hollarda hisoblash jihatdan imkonsiz bo‘lgani sababli, qoniqarli yechimlarni qisqa vaqt ichida topish muhim hisoblanadi.

Metodologik yondashuv natijasida graflar asosida optimallashtirish masalalarini yechishda algoritm tanlash mezonlari ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar masalaning hajmi, cheklovlari va amaliy qo‘llanilish sohasini inobatga olgan holda aniqlanadi.

NATIJA

Olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari shuni yaqqol ko‘rsatdiki, diskret tuzilmalarni optimallashtirish masalalarini yechishda graflar nazariyasiga asoslangan algoritmlar yuqori darajadagi nazariy asoslanganlik va amaliy samaradorlikka ega. Diskret obyektlar va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni graf modeli ko‘rinishida ifodalash murakkab tizimlarni formal matematik strukturalarga keltirish imkonini berdi. Natijada optimallashtirish masalalari aniq qo‘yilib, algoritmik yechimlar uchun qat’iy shartlar belgilandi.

Grafik modellashtirish jarayonida tugunlar va qirralar orqali obyektlar o‘rtasidagi munosabatlar ifodalanib, masalalarning strukturaviy xususiyatlari ochib berildi. Bu yondashuv algoritmlarni loyihalash jarayonini soddalashtiribgina qolmay, ularning hisoblash murakkabligini oldindan baholash imkonini ham yaratdi. Tadqiqot davomida algoritmlarning samaradorligi asimptotik tahlil asosida baholanib, vaqt murakkabligi Big-O notatsiyasi yordamida ifodalandi.

Eng qisqa yo‘l masalalarida o‘tkazilgan tahlillar Dijkstra algoritmining musbat og‘irlikli graflar uchun optimal yechim berishini ko‘rsatdi. Mazkur algoritmning vaqt murakkabligi oddiy amalga oshirilganda *(1-formulaga qarang)*

$$O(|V|^2) \quad (1)$$

bu yerda,

O( ) - Big-O notatsiyasi va bu algoritmning asimptotik vaqt yoki xotira murakkabligini ifodalash uchun ishlatiladi.

|V| - tugunlar (cho‘qqilar) soni va bu esa, grafdagi barcha cho‘qqilar sonini bildiradi. Algoritmning ishlash vaqti ko‘p hollarda grafdagi tugunlar soniga bog‘liq bo‘lib, ayniqsa qidiruv va yo‘l topish algoritmlarida muhim rol o‘ynaydi.

Agar (1) ga teng bo‘lsa, ustuvor navbat *(priority queue)* va Fibonacci to‘plami kabi samarali ma’lumotlar tuzilmalaridan foydalanilganda *(2-formulaga qarang)*

$$O(|E| + |V|log|V|) \quad (2)$$

bu yerda,

|E| - qirralar soni va bu grafdagi barcha bog‘lanishlar (qirralar) sonini anglatadi. Qirralar soni algoritmning murakkabligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

log |V| - logarifmik omil esa, ma’lumotlar tuzilmalari (masalan, ustuvor navbat, muvozanatlangan daraxtlar) qo‘llanganda yuzaga keladigan logarifmik murakkablikni bildiradi. Bu omil algoritmning samaradorligini sezilarli darajada oshirib, katta hajmdagi graflar uchun hisoblash xarajatlarini kamaytiradi.

Bu holat katta hajmdagi graflar bilan ishlashda Dijkstra algoritmining amaliy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Bellman–Ford algoritmi manfiy og‘irlikli qirralar mavjud bo‘lgan graflar uchun muhim afzallikka ega ekani tasdiqlandi. Shu bilan birga, uning vaqt murakkabligi *(3-formulaga qarang)*

$$O(|V| \cdot |E|) \quad (3)$$

ekanligi sababli katta hajmli graflarda hisoblash xarajatlari yuqori bo‘lishi aniqlangan. Demak, bu algoritm asosan cheklangan o‘lchamdagi yoki maxsus shartlarga ega masalalar uchun maqbul hisoblanadi.

Minimal qamrovchi daraxt masalalarida Kruskal va Prim algoritmlarining qiyosiy tahlili graf zichligi algoritm tanlashda hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatdi. Kam qirrali (siyrak) graflarda Kruskal algoritmining vaqt murakkabligi *(4-formulaga qarang)*

$$O(|E|log|E|) \quad (4)$$

bo‘lib, u yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Zich graflarda esa Prim algoritmi, ayniqsa samarali ma’lumotlar tuzilmalari bilan birga qo‘llanganda, ustun natijalar berishi aniqlandi.

Maksimal oqim masalalarida Edmonds-Karp algoritmining deterministik xarakterga egaligi va natijaning barqarorligi amaliy jihatdan muhim afzallik sifatida qayd etildi. Algoritmning vaqt murakkabligi *(5-formulaga qarang)*

$$O(|V| \cdot |E|^2) \quad (5)$$

bo‘lishiga qaramasdan, o‘rta hajmdagi graflar uchun u ishonchli va tushunarli yechim beradi. Biroq, katta hajmdagi tarmoqlarda ushbu algoritmning ishlash vaqti keskin oshishi mumkinligi aniqlanib, bunday holatlarda ilg‘or optimallashtirilgan yoki taxminiy algoritmlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

NP-murakkablik sinfiga mansub masalalarda aniq algoritmlardan foydalanish hisoblash jihatdan cheklanganligi sababli, taxminiy va evristik yondashuvlarning ahamiyati alohida ta’kidlandi. Tadqiqot natijalari bunday algoritmlar optimal yechimdan ma’lum darajada chetlanishi mumkin bo‘lsa-da, qisqa vaqt ichida amaliy jihatdan qoniqarli natijalar berishini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, olingan natijalar graflar nazariyasiga asoslangan algoritmlar diskret optimallashtirish masalalarini

yechishda nazariy jihatdan asosli va amaliy jihatdan samarali ekanini isbotladi. Algoritmlarning hisoblash murakkabligini chuqur tahlil qilish esa ularni real tizimlarda, xususan, tarmoq texnologiyalari, logistika va axborot tizimlarida samarali qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Graflar asosidagi optimallashtirish algoritmlarining qiyosiy tahlili

1-jadval

Algoritm nomi	Yechiladigan masala turi	Vaqt murakkabligi (Big-O)	Xotira murakkabligi	Qo‘llanish sohasi
Dijkstra	Eng qisqa yo‘l (musbat og‘irliklar)	$O(\|E\| + \|V\| \log \|V\|)$	$O(\|V\|)$	Transport tarmoqlari, marshrutlash protokollari, GPS navigatsiya tizimlari
Bellman–Ford	Eng qisqa yo‘l (manfiy og‘irliklar)	$O(\|V\| \cdot \|E\|)$	$O(\|V\|)$	Moliyaviy modellar, valyuta arbitraji, xatolikni aniqlash tizimlari
Floyd–Warshall	Barcha juftliklar orasida qisqa yo‘l	$O(\|V\|^3)$	$O(\|V\|^2)$	Kichik o‘lchamli tarmoqlar, ijtimoiy graf tahlili
Kruskal	Minimal qamrovchi daraxt	$O(\|E\| \log \|E\|)$	$O(\|V\|)$	Telekommunikatsiya tarmoqlari, elektr uzatish tizimlari
Prim	Minimal qamrovchi daraxt	$O(\|E\| + \|V\| \log \|V\|)$	$O(\|V\|)$	Zich graflar, infratuzilma loyihalash
Ford–Fulkerson	Maksimal oqim	$O(\|E\| \cdot f)$	$O(\|V\| + \|E\|)$	Oqimlarni rejalashtirish, logistika tizimlari
Edmonds–Karp	Maksimal oqim (deterministik)	$O(\|V\| \cdot \|E\|^2)$	$O(\|V\| + \|E\|)$	Kompyuter tarmoqlari, resurs taqsimlash
Hopcroft–Karp	Ikki qismli grafda moslashtirish	$O(\sqrt{\|V\|} \cdot \|E\|)$	$O(\|V\| + \|E\|)$	Ish taqsimlash, matching masalalari

A*	Evristik asosidagi eng qisqa yo‘l	*O(|E|) (evristikga bog‘liq)*	*O(|V|)*	Sun’iy intellekt, o‘yinlar, robototexnika
Genetik algoritmlar	NP-murakkab optimallashtirish	Polinomial emas	Muammo hajmiga bog‘liq	Jadval tuzish, marshrut optimallashtirish

Keltirilgan 1-jadvalga ko‘ra, graflar nazariyasiga asoslangan algoritmlarning samaradorligi ularning hisoblash murakkabligi va qo‘llanish sohasi bilan bevosita bog‘liq. Polinomial murakkablikka ega algoritmlar real vaqt tizimlarida keng qo‘llanilsa, NP-murakkab masalalarda evristik va taxminiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois algoritm tanlashda graf hajmi, qirralar soni va amaliy cheklovlar asosiy mezon sifatida qaralishi lozim.

XULOSA

Mazkur tadqiqot diskret tuzilmalarni optimallashtirish masalalarini yechishda graflar nazariyasiga asoslangan algoritmlarning nazariy va amaliy samaradorligini tizimli tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tadqiqot jarayonida diskret obyektlar va ularning o‘zaro bog‘lanishlarini graf modellar orqali ifodalash optimallashtirish masalalarini formal va matematik jihatdan aniq qo‘yish imkonini berishi ilmiy asosda ko‘rsatildi. Grafik yondashuv murakkab tizimlarning tuzilmasini soddalashtirish bilan birga, algoritmik yechimlarning hisoblash murakkabligini oldindan baholash va optimallashtirish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Olingan natijalar optimallashtirish masalalarini samarali yechish algoritm tanlashga bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatdi va bu tanlov grafning tuzilmasi, hajmi hamda qirralar xususiyatlari bilan belgilanadi. Eng qisqa yo‘l masalalarida musbat og‘irlikli graflar uchun Dijkstra algoritmi, manfiy og‘irliklar mavjud bo‘lgan holatlarda esa Bellman-Ford algoritmining qo‘llanilishi maqsadga muvofiqligi asoslandi. Minimal qamrovchi daraxt masalalarida graf zichligiga mos ravishda Kruskal yoki Prim algoritmlaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlashi, maksimal oqim masalalarida esa Edmonds-Karp algoritmining deterministik va barqaror ishlashi amaliy tizimlar uchun muhim afzallik ekani ilmiy dalillar bilan tasdiqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari katta hajmdagi graflarda ayrim aniq algoritmlarning hisoblash murakkabligi sezilarli oshishini ko‘rsatib, bunday sharoitlarda optimallashtirilgan, taxminiy va evristik algoritmlardan foydalanish zarurligini asoslab berdi. Algoritmlarning hisoblash murakkabligini Big-O notatsiyasi asosida tahlil qilish ularning real tizimlardagi qo‘llanish chegaralarini aniqlashda muhim

metodologik vosita ekanligi aniqlandi. Umuman olganda, graflar nazariyasiga asoslangan algoritmlar diskret optimallashtirish masalalarini yechishda nazariy jihatdan puxta asoslangan va amaliy jihatdan samarali bo‘lib, tadqiqot natijalari axborot tizimlari, tarmoq texnologiyalari, logistika va sun’iy intellekt sohalarida algoritm tanlash hamda joriy etish jarayonlari uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi**.**

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Diestel R. *Graph Theory*. – 5th ed. – Springer, Berlin, 2017.
2. Korte B., Vygen J. *Combinatorial Optimization: Theory and Algorithms*. – 6th ed. – Springer, Berlin, 2018.
3. Qodirovich, Q. B. (2025). JARAYONLARNI TIZIMLI TAHLIL QILISHDA ZAMONAVIY VOSITALAR. ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR, 8(80), 321-324.
4. Bobur, Q. (2025). RAQAMLI TA’LIM TIZIMIDAGI AXBOROT OQIMLARINI QAYTA ISHLASH VA TIZIMLI TAHLIL QILISH. ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR, 8(80), 337-339.
5. Rakhmatillayevich A. M. GLOVE: GLOBAL VECTORS FOR WORD REPRESENTATION //AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2025. – Т. 3. – №. 5. – С. 359-364.
6. Ishkobilov F. X. PYTHON DASTURLASH MUHITIDAN FOYDALANIB EKONOMETRIKA MASALALARINI YECHISH //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 43. – №. 4. – С. 24-28.
7. Ишкобилов Ф. Х. и др. РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ //INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 38. – С. 238-241.
8. Курбанов Ж.Ф., Халиков А.А., Ортиков М.С. Устройства намагничивания и размагничивания рельсовых плетей и их сравнительный анализ //Universum: технические науки. – 2019. – №. 10-2 (67). – С. 78-80.
9. Rustamov A. B. DEVELOPMENT OF SOFTWARE FOR DIGITAL INDUSTRIAL STRUCTURE TRANSFORMATION PROCESSES //Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 593-597.

RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING OLIY TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDAGI O‘RNI

Qodirov Bobur
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, p.f.f.d (PhD)
bqodirovv@icloud.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etishning zarurati O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida asoslab berilgan. Maqolada Moodle, LMS, MOOC va HEMIS kabi raqamli ta’lim platformalarining funksional imkoniyatlari, ularning ta’lim jarayonini individuallashtirish, shaffoflikni ta’minlash hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘qituvchi va talaba faoliyatiga ta’siri, o‘qituvchining metodik roli transformatsiyasi hamda talabalarda mustaqil fikrlash, amaliy ko‘nikmalar va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish masalalari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalarini oliy ta’lim tizimiga kompleks va tizimli integratsiya qilish raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi kadrlar tayyorlashning muhim omili ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim texnologiyalari, oliy ta’lim tizimi, HEMIS axborot tizimi, Moodle platformasi, LMS, masofaviy ta’lim, aralash ta’lim, raqamli pedagogika, ta’lim sifati, ta’lim jarayonini raqamlashtirish

ABSTRACT

In this article, the role and significance of modern digital educational technologies in the process of modernizing the higher education system are analyzed from both theoretical and practical perspectives. The study substantiates the necessity of implementing digital educational technologies based on the normative and legal framework aimed at the development of higher education in the Republic of Uzbekistan, as well as on the scientific views of domestic and foreign scholars. The article examines the functional capabilities of digital educational platforms such as Moodle, LMS, MOOC, and HEMIS, highlighting their role in individualizing the educational process, ensuring transparency, and improving the quality and effectiveness of education. In

addition, the impact of digital educational technologies on the activities of teachers and students, the transformation of the teacher's methodological role, and the formation of students' independent thinking, practical skills, and digital competencies are analyzed. The research findings indicate that the comprehensive and systematic integration of modern digital educational technologies into the higher education system is a crucial factor in training competitive, innovative-thinking professionals.

Keywords: digital educational technologies, higher education system, HEMIS information system, Moodle platform, learning management system (LMS), distance education, blended learning, digital pedagogy, quality of education, digitalization of the educational process

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, oliy ta'lim tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot va mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va innovatsion fikrlovchi kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda ta'lim mazmuni, shakli va metodlarini yangilash, o'qitish jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

